

YANGI

O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 76 (1402), 2025-yil 15-aprel, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

YURTIMIZ TURIZMI
RIVOJI CHET ELLIK
INVESTORLARNI O‘ZIGA
JALB ETMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev 14-aprel kuni “Sea Breeze Uzbekistan” xalqaro turizm markazining master-rejasi taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizdagi qulay investitsiya muhiti tufayli barcha sohalarga ilg‘or g‘oyalarni kirib kelmoqda, yangi majmualar barpo etilmoqda. Xususan, turizm so‘nggi yillarda 2 mingdan ortiq yangi tadbirkor ish boshladi. O‘tgan yili xorijiy sayyohlar tashrifi ilk bor 10 milliarddan oshdi. Birgina Toshkent viloyatining Bo‘stonliq hududida Amirsoy va “Ugam River” kabi kurortlar, “Beldirsoy — Chimyon — Nanay” turizm maskanlari tashkil etildi.

Bunday rivojlanish sur‘ati chet ellik investorlarni ham o‘ziga tortmoqda. Jumladan, Chorvoq suv ombori bo‘yida “Sea Breeze Uzbekistan” xalqaro turizm markazi qurilishi haqida avval xabar berilgan edi. Bu galgi taqdimotda ushbu yirik loyihaning bir nechta xorijiy kompaniyalar ishtirokida ishlab chiqilgan master-rejasi ko‘rib chiqildi.

Qayd etilganidek, turizm markazini 10 ta kichik hududga bo‘lib qurish ko‘zda tutilmoqda. Ularning har biri piyoda borish mumkin bo‘lgan ko‘ngilochar maskan va xizmatlarni qamrab oladi. Ikki qirg‘oq o‘rtasida ko‘priklar qurilib, keluvchilarga qulaylik oshiriladi. Suv bo‘yida xiyobon, plaj va dam olish joylari bo‘lsa, qiyaliklarda mehmonxonalar, kottejlar, uylar, restoran va tomoshagohlar bo‘ladi. Shuningdek, madaniyat, ta‘lim, tibbiyot, sport maskanlari barpo etiladi. Ya‘ni bu yerda faqat sayohat emas, balki yil davomida yashash imkoniyati ham yaratiladi.

Davlatimiz rahbari bu loyiha barcha tashrif buyuruvchilarga qulay bo‘lishi lozimligini ta‘kidlab, majmuani zarur infratuzilma bilan ta‘minlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

O‘ZA

ZAMONAVIY LOYIHALAR
SAYYOHLIK MAJMUALARI
JOZIBADORLIGINI
YANADA OSHIRADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev turizm va bunyodkorlik loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Shu yil 9-aprelda bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida davlatimiz rahbari yurtimizning boy tarixi va madaniyati, ajoyib tabiatidan foydalanib, sayyohlarni hozirgidan 2-3 karra ko‘paytirish mumkinligini ta‘kidlagan edi.

Shunday xushmanzara joylardan biri — Bo‘stonliqdagi “Chorvoq darvozasi” majmuasi. Prezidentimiz o‘tgan yili dekabrda uning qurilishini borib ko‘rgan edi, yaqinda loyihaning birinchi bosqichi ochildi. Majmuada 16 ta ko‘p qavatli uy, 3 ta mehmonxona, savdo va maishiy xizmat shoxobchalari, kafe va restoranlar, bank ofisi, avtoturargoh bo‘ladi. Binolar tepasiga quyosh panellari o‘rnatiladi.

Taqdimotda majmuaning keyingi bosqichlarini qurish, sayyohlar uchun jozibadorligini oshirish borasidagi ishlar haqida axborot berildi. Uni arzon va ekologik toza energiya bilan ta‘minlash uchun Chirchiq daryosida kichik gidro elektr stansiyasi barpo etish maqsadga muvofiqligi ta‘kidlandi.

Yana bir loyiha Toshkent shahrining Yashnobod tumanida okeanarium qurishga qaratilgan. Chirchiq daryosi bo‘yida 20 gektarda mo‘ljallangan ushbu okeanarium sayyohlarni jalb etadigan yana bir maskan bo‘ladi. Yonida savdo-mehmonxona majmuasi ham qurilib, ularda jami 1 ming 600 ta ish o‘rni ochiladi.

Shuningdek, Yakkasaroy tumanida turar joy va ishbilarmonlik maskani barpo etish mo‘ljallangan. Unda ko‘p qavatli uylar, bog‘cha va maktablar, sport va sog‘lomlashtirish maskanlari, mehmonxona va savdo ofislari bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

Prezidentimiz loyihalarining huquqiy, moliyaviy jihatlarida hamda infratuzilma masalalarini har tomonlama o‘ylab, chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqish zarurligini ta‘kidladi. Mutasaddilarga sifat va muddatni aniq belgilab, bajarilishini nazorat qilish topshirildi.

O‘ZA

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi

Har gal yangi O‘zbekistondagi keng ko‘lamli islohotlar natijasining asosiy omillari, erishilgan yutuqlar samarasi va istiqbollarini tahlil qilganida, xayolimdanda Prezidentimizning “Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta‘lim va tarbiyadir”, degan gapini o‘tadi. Bu fikrda bugun nafaqat mamlakatimiz, balki dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlarning tub mohiyati to‘liq aks etgan.

HUQUQIY BILIMLI YOSHLAR
—
ADOLATLI JAMIYAT ASOSI

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining bosh g‘oyasi sifatida aholi talablari va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta‘lim va tarbiya, tibbiyot, ijtimoiy himoya tizimini tashkil etish

belgilangan. Yangi O‘zbekistonning 2030-yilgacha bo‘lgan taraqqiyot yo‘li belgilab berilgan mazkur strategik hujjatning birinchi maqsadi aynan maktabgacha ta‘lim tizimidan boshlangani, xususan, ushbu tizimni

yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to‘liq qamrovini ta‘minlash vazifasi qo‘yilgani diqqatga sazovor.

Davomi 3-betda

TO‘SIQSIZ MUHIT

IJTIMOIIY QO‘LLAB-QUVVATLASH
BORASIDA QULAY SHAROIT YARATADI



Bugun O‘zbekistondagi ijtimoiy siyosat sog‘liqli saqlash, inklyuziv ta‘lim, bandlikni ta‘minlash, nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash kabi keng ko‘lamli yo‘nalishlarni qamrab olmoqda. Fuqarolarning ijtimoiy himoyasi, huquq va erkinliklarini ta‘minlash bo‘yicha davlatning qat‘iy kafolatlari amal qilmoqda. Bu boradagi vazifalar Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilab qo‘yilgan.

Davomi 3-betda

KO‘P QUTBLI DUNYODA YANGI
INTEGRATSION UFQLAR OCHILMOQDA

Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti mintaqamiz uchun muhim voqea bo‘ldi. Ushbu sammit Markaziy Osiyo davlatlari va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, savdo-iqtisodiy, transport, energetika va madaniy sohalarida aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Prezidentimiz “Euronews”ga bergan intervyusida bu sammitning mintaq uchun qanchalik muhimligi, u orqali Markaziy Osiyoning xalqaro maydondagi o‘rni yanada mustahkamlanayotganini alohida ta‘kidladi. Haqiqatan, bugungi murakkab geosiyosiy sharoitda mintaq davlatlarining o‘zaro yaqinlashuvi, hamkorlikni mustahkamlashi barqarorlik va taraqqiyot garovidir.

Sammit davomida Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen Yevropa

Ittifoqi tomonidan Global Gateway strategiyasi asosida Markaziy Osiyoga 12 milliard yevrolik investitsiya paketi ajratilishini va mintaqalar o‘rtasida strategik sheriklik boshlanganini e‘lon qildi. Ushbu mablag‘ yangi savdo yo‘laklarini kengaytirish, investitsiya oqimlarini oshirish va sanoatga yo‘naltiriladi. Shuningdek, mintaqadagi toza energiya manbalarini rivojlantirish va global energetikaga o‘tish jarayoniga hissa qo‘shish maqsad qilingan.

Davomi 2-betda

TAXIATOSHDA YANGI SHIFO MASKANI:

“YAGONA TIBBIYOT AXBOROT TIZIMI” YO‘LGA QO‘YILDI

Taxiatosh tumani “Do‘stlik” MFYda yashovchi Ahmed Allayarov II guruh nogironi. U tibbiy ko‘riktan o‘tish uchun yangi barpo etilgan oilaviy poliklinikaga bordi. Binoga kirib kelishi bilan hamshiralalar “Muxlisa” ilovasi orqali elektron navbat olishda yordam berdi.



— Zamonaviy raqamli texnologiyalar bizning mahallagacha yetib kelganidan juda quvondik. Yangidan qurilgan oilaviy poliklinikamizda “Yagona tibbiyot axborot tizimi” yo‘lga qo‘yilgani katta yangilik bo‘ldi, — deydi Ahmed Allayarov. — Poliklinika eng

zamonaviy uslubda barpo etilibdi. Hamma yoq saranjom-sarishta. Ilgaridek vaqtimizni ketkazib, behuda navbat kutib o‘tirmas ekanmiz. Barchasi uchun rahmat.

Davomi 5-betda

“Dolzarb bir oylik” safarbarligi

“TOMORQAMIZGA SUV,
OILAMIZGA BARAKA KIRDI”

Oltiariq tumanidagi “Azimobod” mahalla fuqarolar yig‘inida umrguzaronlik qilayotgan Xudoyberdi Qodirov oilasi “Obod xonadon — obod ko‘cha — obod mahalla” respublika tanlovi g‘olibi bo‘ldi.

Yer qadrini yaxshi bilgan mirishkorlar bu yutuqlarga o‘z-o‘zidan erishgani yo‘q, albatta. U mavjud sharoit va imkoniyatlardan to‘g‘ri va maqsadli foydalandi, farzandlariga bosh bo‘lib imkoniyat qidirdi, izlandi. Hamjihatlikda qilingan mehnat o‘z samarasini berdi.



— Mehnatlarimiz bu qadar e‘tibor topishini kutmagandik, — deydi Xudoyberdi aka kamtarlik bilan. — Bizga 40 million so‘m pul mukofoti, xonadonimiz uchun quyosh paneli, sihatgohga bepul yo‘llanma berishdi. Bundan ko‘nglimiz ko‘tarildi, faxr-iftixorga to‘ldi, qolaversa, katta mas‘uliyat hissini yukladi. Bu yerlarga ko‘chib kelib qo‘nim topganimizga yarim asrdan oshdi. Qumloq yerni unumdor qilish, suv olib kelish oson bo‘lmagan. Bir qarich yerni ham bo‘sh qo‘ymaymiz. Uzunlar orasida malina yetishtiramiz, turli gul ko‘chatlari, lola o‘stirib sotamiz. Xudoga shukr, kam bo‘lganimiz yo‘q. Hamjihatlikda qilingan mehnat tufayli ro‘zg‘orimizga qut-baraka kirdi. Tomorqadan yil davomida unumli foydalanishga harakat qilib, 150-200 million so‘m daromad olamiz. Oilamizdagi to‘kinlik, totuvlik ana shu mehnat va izlanishlarimiz samarasidan.

Davomi 4-betda



2025-yil 15-aprel, 76-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz



Munosabat



SAMARQAND
IQLIM FORUMI
4-5 APREL 2025



KO'P QUTBLI DUNYODA YANGI INTEGRATSION UFQLAR OCHILMOQDA

Boshlanishi 1-betda

So'nggi yetti yilda Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlar mustahkamlandi. Shu yillar davomida Markaziy Osiyo davlatlarining Yevropa Ittifoqi bilan tovar ayirboshlash hajmi to'rt barobar o'sib, 54 milliard yevroga yetdi. O'zbekiston bu jarayonning eng yetakchi ishtirokchisi sifatida Yevropa biznesining Markaziy Osiyoga qiziqishi oshishiga munosib hissa qo'shmoqda.

Ta'kidlash joizki, sammit arafasida Tojikistonning Xo'jand shahrida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston o'rtasida davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risida shartnoma imzolandi. Bu nafaqat tarixiy kelishuv, balki Yevropadagi integratsion jarayonlarga o'xshash tarzda Markaziy Osiyoda ham o'zaro yaqinlashuv yo'lidagi ilk amaliy qadamlardan biri bo'ldi. Bu integratsion harakatlar fonida Yevropa Ittifoqining tajribasidan foydalanish, ayniqsa, demokratik institutlarni rivojlantirish, inson huquqlari, ijtimoiy adolat va fuqarolik jamiyati qurish borasidagi tajribasi biz uchun beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Yevropa Ittifoqi tomonidan demokratiya va inson huquqlari masalalarida siyosiy bosim o'tkazmaslik, o'zaro hurmat va tenglikka asoslangan muloqot yuritilishi hamkorlikni yanada barqaror va samimiy asosga olib chiqadi. O'zaro tenglikka asoslangan hamkorlik zaminida chinakam manfaatdorlik yotadi. Mintaqa davlatlari ko'p vektorli tashqi siyosat yuritir ekan, Yevroittifoq bilan munosabatlar geosiyosiy muvozanatning muhim elementi hisoblanadi.

Ko'p qutbli dunyo tartibotida Yevropa Ittifoqi o'zini alohida qutb sifatida namoyon etishda Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikka tayyanishi mumkin. Mintaqa uchun esa ko'p vektorli tashqi siyosat yuritish, kuchlar muvozanatidan foydalanish va qulay geosiyosiy



Dilshodbek RUSTAMOV,
filologiya fanlari doktori

muhit yaratishda Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik muhim. Savdo-iqtisodiy munosabatlarda bugungi dunyodagi savdo urushlari sharoitida Yevropa Ittifoqi uchun ham Markaziy Osiyo bilan hamkorlik foydali bo'ladi.

Jumladan, ushbu sammit faqat Markaziy Osiyo davlatlari uchun emas, balki Yevropa Ittifoqining o'zi uchun ham strategik ahamiyatga ega. Bugungi geosiyosiy vaziyatda, ayniqsa, Yevroittifoq uchun energiya xavfsizligini ta'minlash, barqaror transport yo'laklarini shakllantirish va yangi bozorlarni izlash zaruriy strategik vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Markaziy Osiyo geografik joylashuvi, tabiiy resurslari va siyosiy barqarorlikka intilayotgan davlatlari bilan Yevropa uchun ishonchli va istiqbolli hamkor sifatida qaralmoqda.

Yevropa Ittifoqiga bu mintaqa energetika xavfsizligini mustahkamlash, ayniqsa, Rossiyadan mustaqil energetik manbalarni diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Markaziy Osiyo davlatlari bilan barqaror savdo-iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish YIning global ta'minot zanjirlaridagi ishonchilligini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ilm-fan va ta'lim sohasida qo'shma dasturlarni amalga oshirish ham mintaga rivoji uchun ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Ayni paytda hamkorlikni yanada chuqurlashtirishda madaniyatlararo muloqot, xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlash, madaniy-gumanitar loyihalarni kengaytirish jiddiy asosga ega bo'lishi kerak. Bu borada, xususan, talabalar almashinuvi dasturlari, professor-o'qituvchilar mobilligi, qo'shma tadqiqot markazlarini tashkil etish kabi tashabbuslar samaralidir.

Madaniy muloqotlarni rivojlantirish hamkorlikning muhim jihatlaridan biri. O'zaro madaniy tadbirlar, ta'lim almashinuvi va san'at sohasidagi loyihalar orqali xalqlarimiz o'rtasidagi tushunish va hurmat yanada mustahkamlanadi. Shu bois, Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi madaniy hamkorlikni kengaytirish bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, ta'lim almashinuv dasturlarini kengaytirish, xususan, talabalar va o'qituvchilar uchun qo'shma dasturlar va stipendiyalar sonini oshirish, bu orqali yosh avlodning global dunyoqarashini kengaytirish lozim.

Ikkinchidan, hamkorlikda madaniy tadbirlarni sifat va son jihatidan oshirish, Yevropa va Markaziy Osiyo san'atkorlari ishtirokida konsertlar, ko'rgazmalar va festivallarni o'tkazish orqali madaniy almashinuvni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Uchinchidan, tarixiy merosni o'rganish va targ'ib qilishda hamkorlikni kuchaytirish lozim. Bunda qo'shma tadqiqotlar va loyihalar orqali mintaqalarimizning boy tarixiy merosini o'rganish va dunyoga tanitish katta o'rin egallaydi.

Ushbu tashabbuslar Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

JARAYON



Qulaylik

BIRINCHI XATO KECHIRILADI HALOL TADBIRKORLAR ESA KO'PAYADI

Yerga nihol qadash uchun yarim soatlik jismoniy mehnat, bog'dorchilik ilmidan hamingqadar xabardorlikning o'zi yetarli. Ammo uni parvarishlab daraxtga aylantirish, ko'paytirib bog' yaratish uchun bir necha yil ter to'kishga to'g'ri keladi. Hatto bog' barpo etishda mineral ozuqa, suvni vaqtida berib parvarishlasangiz ham kutilmagan tabiat injiqliklari ta'sir qilishi ehtimoli mavjud. Masalan, qurg'oqchilik nihollaringizni quritishi yoki bemahal qor yog'ishidan barchasini sovuq urib nobud qilishi mumkin.

Shuning uchun bu jarayonda bog'bonning mehnati, aqliy salohiyati, yetarlicha mineral oзуqalariga emas, bog' uchun tabiiy muhit mavjudligi ham muhim.

Biznes boshlash ham xuddi shunday: tadbirkorlik qilish uchun ozgina mablag', yaxshi g'oya bo'lishining o'zi kifoya. Ammo uni yirik tadbirkorlik subyektiga aylantirish, brend yaratish uchun ishbilarmonlik qobiliyati, moliyaviy manbaning o'ziga yetarli bo'lmaydi. Buning uchun hududda qulay ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy muhit yaratilgan bo'lishi ham zarur. Bunday muhitda inson ertasini aniq ko'ra oladi, katta maqsadlarni

yog'masligi, qurg'oqchilik bo'lmasligi haqida xabar berilishiga o'xshaydi. Bu yangilik ilg'or kichik va o'rta biznes vakillarining yangi brend va yirik korxonalarga aylanishiga o'ziga xos qulay muhit yaratadi.

Farmonda tadbirkorlar faoliyatini rivojlantirish uchun turli masalalarda yengillik berish nazarda tutilgan. Masalan, endigina faoliyatini boshlagan odam bu sohada yetarlicha bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'lmagani sababli kichik qoidabuzarliklarga yo'l qo'yishi mumkin. Misol uchun, sotuvni yangi yo'lga qo'ygan do'kondor to'lov terminali o'rnatishga ulgurmagan bo'lishi yoki kichkina tahriyat ochmoqchi bo'lgan ishbilarmon

Bunday imtiyoz Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning XIII bobida keltirilgan savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish, litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risidagi qonunchilikka amal qilmaslik, bozorlarda savdo qilish qoidalariga zid harakatlanish kabi huquqbuzarliklarda qo'llanadi.

Shuningdek, ortiqcha qog'ozbozlik va ovoragarchiliklardan ozod qiladigan mexanizmlardan yana biri kichik va o'rta biznes subyektlarining faoliyatini ixtiyoriy ravishda tugatishda soliq tekshiruvidan o'tkazilmasligidir. Bunda tadbirkorlik subyektlarining oxirgi uch yildagi daromadi 10 milliard so'mdan oshmasligi, byudjet va kreditorlar oldida qarzdorligi bo'lmasligi hamda soliq hisoblarini o'z vaqtida topshirishi talab etilmoqda. Tadbirkorlik subyektlarining "Xavfni tahlil qilish" elektron tizimida huquqbuzarlik sodir etish xavfi past darajada tasniflangan bo'lishi ham zarur.

Farmonda fermerlar yelkasidan tog' ag'dargan yangilik mavjud. Bu soliq qarzdorligi bo'yicha shu paytgacha hisoblangan penyalarni to'lash majburiyatidan fermerlarning ozod qilinishidir. Bu davlat 1 trillion so'mlik penyani undirishdan voz kechdi degani.

Qisqasi, endi tadbirkorlik faoliyatini boshlagan yoki biznes qilishga bel bog'lagan insonlar uchun farmonda katta qulaylik va imtiyozlar belgilangan. Bu esa yurtimizdagi tadbirkorlik muhitining jozibadorligini oshiradi.

Tashabbuskor, faol tadbirkorlar O'zbekistonda doim qadrlanadi. Bunday insonlarning qo'shimcha imtiyoz va yanada keng imkoniyatlarga ega bo'lishi turgan gap. Masalan, farmonda atrof-muhitni asrash, o'z tadbirkorlik subyektida ko'kalamzorlashtirish, daraxt ekib, o'ziga xos ekologik sof muhit yaratishda tashabbus ko'rsganlarga qo'shimcha imkoniyatlar taqdim etilishi ko'zda tutilgan.

Bunday ishbilarmonlarga "yashil tadbirkor" maqomi berilib, "Shaffof qurilish" platformasida ustuvorlik taqdim etilishi, muayyan muddat davomida ekologik tekshiruvlardan ozod etilib, hatto xalqaro bozorlarga chiqishiga ko'maklashish ham nazarda tutilmoqda. Bunday imtiyozlar yurtimizda "yashil tadbirkor" maqomini olgan ishbilarmonlar ko'payishiga zamin yaratadi.

Shuningdek, ishbilarmonlar "yashil tadbirkor" maqomini olishi uchun energiyatejamkor va muqobil energiya manbalardan foydalanishi, korxonasining faoliyati tabiatga ziyon yetkazmasligiga harakat qilishi ham talab etiladi.

O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratilayotganini qayd etdik. Aslini olganda, o'zaro uy'g' holda turli yo'nalishlar taraqqiyoti uchun o'ziga xos muhit hozirlanmoqda. Ularning umumlashmasi dunyo mamlakatlari orasida O'zbekiston o'z nomi va obro'siga ega bo'lishiga zamin yaratmoqda. Bu sohalar yurtimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan keyingi pog'onaga ko'tarilishi yo'lida mustahkam ustun vazifasini o'taydi. Tadbirkorlik sohasi esa bu ustunlarning eng muhimlaridan.

**Sanjar ESHMURODOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri**



Bugunning gapi

Har bir inson, avvalo, o'z uyiga ega bo'lishi, aholi turmush darajasini oshirish uchun shart-sharoit yaratilishi kerak. Boisi, uyidan ko'ngli to'q insonning ishida unum va baraka bo'ladi. Ayni maqsadda so'nggi besh yilda umumiy maydoni 21,7 million metr kvadrat bo'lgan ko'p kvartirali uy-joylar barpo etilib, aholining uy-joy sotib olishiga ko'maklashish uchun 67 trillion so'm ipoteka kreditlari ajratildi. Byudjetdan 44 trillion so'm yo'naltirildi.

Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha O'zbekiston tajribasining o'ziga xosligi shundaki, ushbu siyosat eng quyi bo'g'in — mahalla darajasigacha tushgan. Eng asosiy, aholining ta'lim va sifatli tabiiy xizmatidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, uy-joy sharoitlarini yaxshilash, ijtimoiy himoyani kuchaytirishga ham alohida e'tibor qaratilayptiki, bu orqali ko'p o'lchovli kambag'allikni qisqartirish dasturi amalga oshirilmoqda.

Bugun esa daromadi yuqori bo'lmagan oilalarga davlatimiz yordam qo'lini cho'zmoqda. Ya'ni subsidiya orqali minglab insonlarning orzulari ushlab, uyli bo'lmoqda.

Subsiyada nima? Subsiyada — uy-joy xarid qilish uchun dastlabki bosqichda davlat tomonidan to'lab beriladigan mablag'. Eng muhimi, u qaytarib olinmaydi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 21-fevraldagi "Uy-joy va ipoteka bozorini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan 2025-yil uchun ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturining asosiy yo'nalishlari belgilab berildi.

— Jumladan, joriy yilda hududlarda jami 135 ming kvartirali uy-joylar quriladi, — deydi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bosh mutaxassisi Shahbov Zokirov. — Eng muhimi, 30 ming talaborga subsidiya va 20 trillion so'm ipoteka krediti ajratiladi.

Ushbu maqsadlar uchun ipoteka kreditlari bo'yicha dastlabki badal va foiz to'lovlarining

bir qismini qoplash uchun subsidiyalari soni 1,5 baravar oshiriladi va mazkur maqsadlarga davlat byudjetidan 2,5 trillion so'm yo'naltiriladi.

O'zgaruvchan bozor sharoitida uy-joy qurish puxta hisob-kitob bilan birga kutilmagan narx o'sish holatlariga tayyor turishni talab etadi. Bo'lmasa, katta mablag' yo'qotilib, foydalanish muddatlari kechikishiga, aholi e'tiroziga sabab bo'lishi mumkin.

Buni biz bugun ko'plab misollarda ko'r-yapmiz, ba'zilarimiz boshimizdan o'tkazaymiz. Farmon bilan shunga o'xshash holatlarda ham aholini, ham qurilish tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash uchun uy-joy va ipoteka bozorini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash maqsadida 20,9 trillion so'm ipoteka krediti ajratilishi belgilandi. Shuningdek, "Yangi O'zbekiston" va boshqa massivlarda ko'p kvartirali uy-joylar barpo etishda ishtirok etadigan qurilish tashkilotlarini aylanma mablag'lar bilan ta'minlash uchun davlat byudjetidan 700 milliard so'm hamda tijorat banklarining o'z mablag'lari hisobidan 3 trillion so'm yo'naltiriladi.

Renovatsiya shaharliklar ko'p muhokama qiladigan mavzulardan biri. Bu tabiiy hol. Sababi respublikamizdagi ko'p kvartirali uy-joy fondining qariyb 40 foizini 2-3 qavatli uylar tashkil etadi. Ularning aksariyatiga oqova suv quvurlari tutilmagan. Ayrimlarning foydalanish muddati tugab bormoqda.

Hujjatda ushbu masalaning yechimi va uni amalga oshirish shartlari ham belgilandi. Ya'ni 2025-yil 1-martdan boshlab renovatsiya asosida

XOTIRIAM INSONNING ISHIDA UNUM VA BARAKA BOR



**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**



2025-yil 1-martdan boshlab "Yangi O'zbekiston" massivlari uchun yangi hududlar urbanizatsiya tamoyillariga muvofiq tanlanmoqda. Yerni ko'p kvartirali uy-joy qurish uchun ijaraga olgan yuridik shaxslar yer solig'ini to'lashdan ozod etiladi.

ko'p kvartirali uy-joylarni barpo etish tartibi joriy etilmoqda. Unga ko'ra, renovatsiya loyihasini boshlashga barcha mulkdorlar bilan notarial tasdiqlangan kelishuv bitimi imzolanganidan so'ng ruxsat beriladi.

— Bundan tashqari, 2025-yil yakuniga qadar renovatsiya dasturlari asosida 20 ming hamda 2026-yil yakuniga qadar 30 ming kvartirali uy-joylar barpo etiladi, — deydi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi boshqarma boshlig'i o'rinbosari Elyor Komilov.

— Mulkdorlarga, ularning xohishiga ko'ra,

qator kompensatsiya turlari taqdim etilmoqda. Xususan, buzilayotgan turar joy obyektlari o'miga ularning maydonidan kam bo'lmagan, renovatsiya dasturiga muvofiq yangi quriladigan turar joylardan yashash uchun tayyor holdagi kvartiralar mulk huquqi asosida beriladi. Qurilish davrida ko'chish, shu jumladan, boshqa turar joy obyektni vaqtinchalik ijaraga olish bilan bog'liq xarajalar, buzilayotgan turar va noturar joyning bozor qiymati to'liq qoplab beriladi.

Bugun ko'p joylarda qurilayotgan "Yangi O'zbekiston" massivlariga qiziqish yuqori.

Ko'pchilik bunday joylarda yashashni orzu qiladi. Maktab, bog'cha, oilaviy poliklinika, do'kon yoningizda. Mahalla idorasida o'zingizning ko'plab muammolaringizni hal qilishingiz mumkin.

Hujjatda mazkur massivlarni barpo etish bilan bog'liq barcha masalalar qamrab olingan. Xususan, 2025-yil 1-martdan boshlab "Yangi O'zbekiston" massivlari uchun yangi hududlar urbanizatsiya tamoyillariga muvofiq tanlanmoqda. Yerni ko'p kvartirali uy-joy qurish uchun ijaraga olgan yuridik shaxslar yer solig'ini to'lashdan ozod etiladi.

— Hududlarda yangi quriladigan infrazuzilma inshootlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari va energiya tejoyvchi uskunalaridan kam foydalaniladi, — deydi E.Komilov. — Bundan tashqari, ko'p kvartirali uy-joylar va ijtimoiy soha muassasalarining elektr energiyasi ta'minotiga xususiy operatorlarni jalb etish nazarda tutilmoqda. Oqova suv tozalash tizimlarida texnologik qayta tozalangan suvni massivlar hududini obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, irrigatsiya va boshqa maqsadlarga yo'naltirish yo'lga qo'yiladi.

Joriy yil 1-maydan auktsion savdolarida yer uchastkasini ko'p kvartirali uy-joy qurish uchun ijaraga olgan yuridik shaxslar ijaraga olgan paytdan boshlab 12 oy davomida ushbu yer uchastkasi bo'yicha yer solig'ini to'lashdan ozod qilinadi. Bunda ko'p kvartirali uy-joy belgilangan muddatda qurilib, foydalanishga topshirilmasa, imtiyozdan foydalanilgan davr uchun yer solig'i 2 baravar miqdorda undiriladi.

Qurilish murakkab soha. Bino foydalanishga topshirilgunicha qator talablarga javob berishi kerak. Ba'zida tartiblarga amal qilmaslik, muddatlar uzozligi bois, uylar egalari topshirilishi kechikadi. Bu esa fuqarolarning haqli e'tirozlariga sabab bo'ladi.

Hujjatda bu masalalarga ham huquqiy yechim ko'rsatiladi. 2025-yil 1-maydan qurilishni boshlashdan foydalanishga ruxsatnoma berishiga qadar bo'lgan jarayonlar to'liq onlayn rejimida "Shaffof qurilish" tizimida amalga oshiriladi. Qurilishi tugallangan ko'p kvartirali uy-joydan foydalanishga ruxsatnoma berishda faqat Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi hamda davlat yong'in nazorati organlaridan xulosa olinadi. Inspeksiya ro'yxatdan o'tgan va u tomonidan nazorat qilinadigan ko'p kvartirali uy-joylarni foydalanishga ruxsatnoma berishdan oldin instrumental-texnik tekshiruvdan o'tkazish amaliyoti bekor qilinadi.

**Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri**

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi

HUQUQIY BILIMLI YOSHLAR — ADOLATLI JAMIYAT ASOSI

Kozimjon KOMILOV,
Konstitutsiyaviy sud sudyasi,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist

Boshlanishi 1-betda

Yurtimizda maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirish qay darajada muhim bo‘lsa, yoshlarda bolalikdan huquqiy madaniyatni shakllantirish, ular ongiga asosiy huquqiy ko‘nikmalarni singdirish shunchalik ahamiyatli. Bu, o‘z navbatida, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga, yoshlarning inson huquqlari va demokratik qadriyatlarga bo‘lgan ijobiy munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ba’zan jamiyatda huquqbuzarliklar, jinoyatchilik ko‘payganidan nolib qolamiz. Birinchi navbatda, uning oqibatlari bilan kurashishga kirishib ketamiz. Vaholanki, ko‘p yillik tajribam va kuzatuvlarimdan kelib chiqib aytadigan bo‘lsam, uning ildizlari aksariyat hollarda yoshlikda berilgan ta’lim va tarbiya hamda o‘sha huquqbuzarlik yoki jinoyatni sodir etgan inson unib-o‘sgan bolalik muhitiga borib taqaladi.

Shunday ekan, maktabdan boshlangan huquqiy ta’lim kelajak uchun mustahkam poydevor, degan qoida o‘zbek jamiyatining qon-qoniga singishi zarur.

Ba’zan turmush tashvishlari bilan ovora bo‘lib, ota-onalar bolalar tarbiyasiga yoshligidan e’tibor bermasligi keyinchalik tizimli salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Axir xalqimizda “To‘qqizida bo‘lmagan to‘qsonida ham bo‘lmaydi” degan naql bejiz aytilmagan. Bolani bilim olishga, yaxshi xulqqa qanchalik erta o‘rgatsak, tarbiya bersak, shunchalik tez moslashadi, o‘rganadi. Farzandimning qorni to‘q, usti bot bo‘lsa bas deb o‘ylash, faqat maktabni bitirayotgan pallada u haqda qayg‘urish aslo to‘g‘ri emas. Shunday qilsak, tarbiyada qo‘ldan boy berilgan fursat azobini o‘zimiz tortamiz.

Demoqchimanki, maktabgacha ta’lim bolalarning ilk ta’lim va tarbiya olishi, shaxs sifatida shakllanishi uchun muhim bosqichdir. Ushbu bosqichda bolalarning asosiy bilim va ko‘nikmalari rivojlana boshlaydi, ular jamiyatga integratsiyalanishga tayyorlanadi.

Keyingi yillarda maktabgacha ta’limga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlat maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, infratuzilmani yaxshilash va bolalarning ravnaq topishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishga intilmoqda. Bunday imkoniyatdan o‘z vaqtida foydalanishimiz shart. Bolajonlarga sodda til va jonli misollarda inson huquqlari, adolat, demokratiya va tinchlikka bag‘ishlangan asosiy qadriyatlarni xuddi xalqimizga xos kattaga hurmat, kichikka izzat kabi munosabatlar tariqasida o‘rgatishimiz lozim.

O‘tgan yili ijtimoiy tarmoqlarda ichki ishlar organlari xodimlari va huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari o‘z xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar bilan o‘tkazgan suhbatlar tanqid qilinib, turlicha talqin etildi. Aslida, bu bir tomonlama yondashuv. Rasmiy formadagi shaxslarning bunday suhbatlari ijobiy baholanishi kerak edi. Chunki aynan shunday rasmiylik tomonidan nima yaxshiyu nima yomon ekani, hech bo‘lmasa, yo‘l harakati xavfsizligining asosiy talablari kabi bilimlar tushuntirilishida hech qanday salbiy oqibat yo‘q.

Boshqacha aytganda, ongida yoshlikdan erkinlik, ijodiy faoliyat, tenglik va munosabatlar haqidagi asosiy tushunchalarni uyg‘otish bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivoji uchun muhim. Bu maktabgacha ta’lim tizimida hayotiy qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Yana bir gap. Konstitutsiya davlatning bosh qonuni, tartib-intizom, yashash tarzimining asosiy qoidalari mujassam hujjat sifatida o‘qitilishi, o‘rgatilishi shart. O‘zi bolalar uchun har qanday bilim zarur, zamonaviy bilimlar va xorijiy tillarni egallash zamon talabi. Ammo uning bekamu ko‘st, ta’lim va tarbiya bilan uyg‘un bo‘lishida huquqiy bilimning o‘rni bo‘lakcha.

Mamlakatimizda maktab ta’limi tizimini modernizatsiya qilish, o‘qituvchilar malakasini oshirish va o‘quv dasturlarini zamon talablariga muvofiqlashtirishga qaratilgan ko‘plab islohotlar kechmoqda. Zero, maktab ta’limi yoshlarning bilim olishi, kasb va mutaxassislik tanlashi uchun asosiy bosqich hisoblanadi.

Shu o‘rinda yoshlarning huquqiy bilimlarini mustahkamlash, shaxs sifatida ma’naviy-huquqiy shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar to‘g‘risida ham to‘xtalib o‘tish lozim. Bunda, birinchi navbatda, yosh yigit hamda qizning o‘zi va ularning qiziqishlari, ikkinchidan,




















“ONGIDA YOSHLIKDAN ERKINLIK, IJODIY FAOLIYAT, TENGLIK VA MUNOSABATLAR HAQIDAGI ASOSIY TUSHUNCHALARNI UYG‘OTISH BOLALARNING SHAXSIY VA IJTIMOIOY RIVOJI UCHUN MUHIM. BU MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA HAYOTIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHGA YORDAM BERADI.

kichik ijtimoiy guruhlar, ya’ni oila, maktab, mahalla va ularning qiziqishlari, uchinchidan esa jamiyat va undagi siyosiy, mafkuraviy, madaniy-ma’rifiy, iqtisodiy sohalarining umumiy holati katta ta’sir o‘tkazishini ta’kidlash lozim bo‘ladi. Bularning ichida huquqiy tarbiyaning asosiy manbai va o‘chog‘i maktab ta’limidir.

Har bir o‘quvchi Konstitutsiya va inson huquqlari haqida tushunchaga ega bo‘lishi kerak. O‘quvchilarga asosiy huquqlar, erkinliklar, fuqarolik burchlari, adolat, tenglik va demokratiya kabi tushunchalar o‘rgatilishi, ularni jamiyatda faol va mas’uliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, huquqiy bilimlar, sud tizimi, qonunlar va huquqlar taqdim etilgan taqdimotlar bolalarni kelajakdagi ijtimoiy munosabatlarda muammolarni hal qilishga tayyorlashda yordam beradi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Shuningdek, huquqiy tarbiya yoshlar o‘rtasida adolat, shaxsiy va jamiyat manfaatlari muvozanatini saqlashga yordam beradi. O‘quvchilar huquqiy savodxonlikka ega bo‘lish orqali jamiyatdagi huquqiy muammolarni hal qilishda faol ishtirok etadi.

Bugungi murakkab davrda davlat oldida mamlakat ichki va tashqi siyosat bilan bog‘liq juda katta ishlar turishiga qaramay, ta’limga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki dunyoning istalgan taraqqiy etgan davlati tarixiga, bosib o‘tgan yo‘liga nazar tashlasangiz, ilgma, ta’lim-tarbiyaga birlamchi masala sifatida e’tibor berilib, yuksak natijalarga erishayotganiga guvoh bo‘lasiz.

Hozirgi davrda iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va modernizatsiya qilish uchun ko‘p mablag‘ talab etilayotgan bo‘lishiga qaramay, davlatimiz xalqimizning peshona teri bilan topilgan pullarning katta qismini farzandlarimiz tarbiyasiga, ular hech kimdan kam bo‘lmagan bilim olishlari uchun sharoit yaratishga ajratyapti. Chunki yuksak ma’naviyatli, bilimli, dunyoqarashi keng, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ishlarini boshqa sohalar bilan parallel

rivojlantirmasdan ko‘zlangan maqsadimizga erishib bo‘lmaydi.

Huquqni o‘qitish misolida shakllanib borayotgan ta’lim klasterlari modelini yanada kengroq joriy etishni zarur deb hisoblaymiz. Jumladan, “oila — maktabgacha ta’lim tashkiloti — maktab — maxsus ta’lim — oliy ta’lim — jamiyatga uyg‘unlashish” mexanizmlarini tizimli amalga oshirish belgilab berilgan oliy maqsadlar yo‘lida qo‘yilgan vazifalarni samarali hal etishga xizmat qiladi. Eng muhimi, Uchinchi Renessans sharoitida yangi avlod kadrlari yetishib chiqib, yurtimizni dunyoga yanada keng tanitadigan iqtidorlar soni va sifati oshadi.

Yuqoridagi fikrlarni mustasr qilib aytish mumkinki, maktabgacha va maktab ta’limi tizimida shaxsiy rivojlanish va axloqiy tarbiyaga alohida e’tibor qaratis, maktab ta’limida esa huquqiy bilimlar, demokratiya hamda adolat prinsiplarini o‘rgatish yoshlarning ijtimoiy faoliyati va davlat hayotiga munosabatini shakllantiradi. Huquqni o‘qitish, konstitutsiyaviy tushunchalarni o‘rgatish yoshlarga o‘z huquqlari hamda burchlarini tushunishida va adolati jamiyatni yaratishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Boshlanishi 1-betda

2021-yil iyunda O‘zbekiston BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasini ratifikatsiya qildi. Ushbu qadam mamlakatimizning nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro standartlarga befarq emasligini tasdiqladi. Hujjatga qo‘shilish natijasida xalqaro huquq normalari milliy huquq tizimiga bosqichma-bosqich joriy etila boshladi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyat hayotiga jalb etish har qanday demokratik davlat va zamonaviy jamiyat barqaror rivojlanishining zaruriy ijjatidir. Bu omil axloq, ma’naviyat va adolat darajasining ko‘rsatkichi hamdir. Shu bilan birga, davlatning o‘z faoliyatini ijtimoiy adolat va qonuniylilik tamoyillari asosida inson va jamiyat farovonligi manfaatlarini ko‘zlab yuritish majburiyati mamlakatimiz bosh qonunida mustahkamlangan.

Prezidentimizning 2024-yil 18-iyuldagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarga qulay va to‘siqlarsiz muhit yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan Nogironligi bo‘lgan shaxslarga qulay va to‘siqlarsiz muhit yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi Ijtimoiy inspeksiya oldiga aholiga sifatli ijtimoiy xizmat ko‘rsatilishi ustidan samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tegishli vazifalar belgilandi.

Inspeksiya ijtimoiy himoya sohasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi bilan shug‘ullanuvchi vakolatli davlat boshqaruvi organi. Ijtimoiy himoya sohasidagi qonun hujjatlari, shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish bo‘yicha talab va standartlarga rioya etilishi, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda yetim bolalar va ota-onaga qaramog‘idan mahrum bolalarga g‘amxo‘rlik qilish, nogironligi bo‘lgan shaxslarga to‘siqlarsiz muhit yaratish borasidagi ishlar ustidan nazorat qilish kabilar uning vazifasiga kiradi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarga qulay muhit BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi



IJTIMOIOY QO‘LLAB-QUVVATLASH BORASIDA QULAY SHAROIT YARATADI

konvensiyasini amalga oshirishning asosiy shartlaridan biridir. Hujjatda nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyat va davlat hayotida boshqalar bilan teng ishtirok etishi uchun shart-sharoitlar yaratish zarurligi ta’kidlangan. Bu transport, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini nazarda tutadi. To‘siqlarsiz muhit me’moriy to‘siqlarni bartaraf etish, nogironligi bo‘lgan shaxslar erkin harakatlanishiga qulay va xavfsiz makonni yaratish orqali shakllantiriladi. Bunda ular barcha ijtimoiy xizmat va resurslardan foydalana olishi kerak.

Qarorda belgilangan vazifalarni amalga oshirish doirasida bino va inshootlar, madaniy obyektlar, chorrahalar, piyodalar yo‘laklari, yer usti va yer osti piyodalar o‘tish joylarida nogironligi bo‘lgan shaxslarning qulay harakatlanishi uchun sharoitlar yaratilishi, jamoat transporti va fuqaro aviatsiyasi vositalari nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mo‘ljallangan uskunalar bilan ta’minlanishi ustidan nazorat tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Shuningdek, mas’ul shaxslarning qulay va to‘siqlarsiz muhit yaratish bo‘yicha zimmasiga yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarishi nazorat qilinmoqda.

“Shaffof qurilish” tizimi orqali majburiy



ekspertiza monitoringi yo‘lga qo‘yilib, to‘siqlarsiz muhit yaratish bo‘yicha mas’ullar belgilandi.

2024-yil 1-avgustdan boshlab viloyat, tuman va shahar hokimlarining bir o‘rinbosari qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalarni rivojlantirish, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari, 2024-yil 1-sentabrden esa vazirlik va idoralarda rahbar o‘rinbosarlaridan biri nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay va to‘siqlarsiz muhit yaratish uchun mas’ul etib tayinlandi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning ehtiyojidan kelib chiqib, to‘siqsiz muhit yaratilishi lozim bo‘lgan obyektlar belgilab olindi. Xususan, 2025-yil 1-yanvargacha davlat organlari va tashkilotlarining ma’muriy binolarida zarur sharoitlar yaratilgan bo‘lsa, 2026-yil 1-yanvargacha tuman va shaharlarning barcha ma’muriy binolari qamrab olindi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlariga metro va avtobus bekatlari hamda chorrahalar ham kiritilgan.

Har yili “Xavfsiz yo‘l va xavfsiz piyoda” respublika jamg‘armasi mablag‘ining kamida 10 foizi nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun chorrahalarini qurish, ta’mirlash va jihozlashga yo‘naltiriladi.

Shu bilan birga, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun to‘siqlarsiz muhit yaratish borasida besh yo‘nalish bo‘yicha uch yillik (2025-2027-yillar) manzillli dastur amalga oshirilmoqda. Dasturga muvofiq, 35 soha bo‘yicha 461 turdagi obyektlar toifalashtirilmoqda. Jumladan, 173 ta obyektga joriy etilishi lozim bo‘lgan majburiy ekspertiza talablari belgilandi.

Ijtimoiy inspeksiya mutaxassislari tomonidan viloyat markazlariga chiqilib, viloyat hokimi o‘rinbosarlari, hududiy qurilish va ekspertiza boshqarmalari mas’ul xodimlari, shuningdek, loyiha va qurilish tashkilotlari vakillari ishtirokida seminar o‘tkazilmoqda. Seminarda investitsiya dasturida nazarda tutilgan obyektlarning loyiha hujjatlarini texnik ekspertizadan o‘tkazish masalalariga bag‘ishlangan namunaviy loyihalar taqdimoti va tushuntirishlar yo‘lga qo‘yildi.

Mazkur qaror nogironligi bo‘lgan shaxslarning turmush sifatini yaxshilash bo‘yicha keng qamrovli dastur davomidir. Hujjatda obyektlarning shaharsozlik hujjatlari loyihalarining texnik qismini majburiy ekspertizadan o‘tkazish mexanizmini ta’minlash bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan. Qurilayotgan bino va inshootlarni qulayligi borasida majburiy

ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha majburiy shart qo‘yilgan.

Saudiya Arabistoni va boshqa mamlakatlarning universal loyihalashtirish kodeklarini ishlab chiqishda tajribaga ega xorijiy ekspert, arxitektor Andres Balkazami jalb qilgan holda, “Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay muhit yaratish” mavzusida seminar-treninglar tashkil etildi. Onlayn va offline formatdagi muloqotlarda 100 dan ortiq hududiy bosh arxitektor va loyihachilar, shuningdek, 400 me’mor va NNT xodimlari, Toshkent arxitektura-qurilish universitetining 50 dan ziyod professor-o‘qituvchisi hamda talabalari qamrab olindi.

Seminarlarda loyihalash xavfsizligini ta’minlash strategiyasi va qulay muhit yaratish vazifalari bo‘yicha tushuntirish berildi. Natijada 600 dan ortiq mutaxassisning malakasi oshirildi.

Shaharsozlik normalari va qoidalar ham takomillashtirilmoqda. Xususan, 30 dan ziyod qo‘shimcha va takliflar kiritildi, madaniy meros obyektlarida inkluziv shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha 15 ta taklif va vazifa ishlab chiqildi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarga xavfsiz, qulay va to‘siqlarsiz muhit yaratishga qo‘yiladigan qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi yuzasidan nazorat tadbirlari bino va inshootlar, jamoat transporti vositalari, aeroportlar va vokzallarni qamrab olmoqda.

Hozir 2401 ta infratuzilma obyekti (teatrlar, sport maydonchalari va zallari, ko‘zi ojizlar uchun kutubxonalar, bog‘lar, metro va avtobus bekatlari, chorrahalar, ko‘chalar, sport maktablari, madaniy meros obyektlari, aeroportlar, vokzallar va boshqalar) o‘rganildi. O‘rganish yakunlari yuzasidan obyektlarni nogironligi bo‘lgan shaxslarga moslashtirish bo‘yicha tegishli takliflar ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, jamoat transporti holatini o‘rganish va nogironligi bo‘lgan shaxslarga xizmat ko‘rsatish sifatini tekshirish uchun maxsus reydlar o‘tkazilmoqda. Tadbir davomida avtobus haydovchilari tomonidan yo‘lovchilarni ogohlantiruvchi audiovizual qurilmalardan foydalanmaslik kabi holatlar ma’lum bo‘ldi.

Ijtimoiy inspeksiya Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi bilan hamkorlikda

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay va to‘siqlarsiz muhit yaratish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma ishlab chiqildi. Qo‘llanma loyihachilar, quruvchilar hamda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari uchun amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Shu bilan birga, sport maktablari va ta’lim muassasalarining universal loyihalari ishlab chiqildi. Ayni paytda ushbu tashabbuslar doirasida mamlakatdagi 327 ta ixtisoslashtirilgan sport maktabi bosqichma-bosqich moslashtirilmoqda.

Ushbu ta’lim muassasalari hududida shaharsozlik norma va talablari, shuningdek, Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya qoidalariga rioya etiladi. Panduslar, taktil qoplamalar, mnemonik chizmalar va yordamga chaqirish tizimlari kabi an’anaviy qulayliklardan tashqari har bir maktabda qulay va to‘siqlardan xoli muhit yaratiladi. Bu nafaqat binoning tashqi va ichki ko‘rinishi, balki sport zallari, yo‘laklar, kiynish xonalari va hojatxonalarni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu sa’y-harakatlar aholi salomatligini mustahkamlash, yoshlarning o‘z kuchi va imkoniyatiga ishonchini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugun rivojlanayotgan inkluziv ta’lim barcha bola uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan. Inkluzivlik tamoyilining o‘zi imkoniyat cheklangan bolalarni tengdoshlari bilan oddiy maktabda o‘qitishni nazarda tutadi. Bu esa ularning ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Inkluziv ta’lim tizimi rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolaning boshqalar bilan teng ravishda mashg‘ulotlarda to‘liq qatnashishi, bilim olishi, o‘qish va yozishni o‘rganishini ta’minlaydi. Asosiy jihatlardan biri faoliyat yuritayotgan va endi qurilayotgan ta’lim muassasalarida qulay, to‘siqsiz muhit yaratishdir.

Shu maqsadda Ijtimoiy inspeksiya shaharsozlik normalari va qoidalari, shuningdek, Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya talablarini inobatga olgan holda inkluziv maktablarning namunaviy loyihagini ishlab chiqdi.

Shunday qilib, zamonaviy O‘zbekistonda aholi manfaatlarini ta’minlash, ayniqsa, nogironligi bo‘lgan fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ularga g‘amxo‘rlik qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilayotganini ko‘rish mumkin. Mamlakatimizda ijtimoiy himoya mexanizmi orqali jamiyatning ijtimoiy himoyaga multoq qatlamlariga manzilli xizmat va yordam ko‘rsatilayapti.

Davlatimiz rahbari tomonidan qo‘yilgan vazifalarni bajarish chinakam ijtimoiy davlat qurishga imkon beradi va yurtimizda inson huquq-manfaatlari hamma narsadan ustun turishini anglatadi.

Husniddin QUTBIDDINOV,
Ijtimoiy himoya
milliy agentligi huzuridagi
Ijtimoiy inspeksiya boshlig‘i

“Dolzarb bir oylik” safarbarligi

“TOMORQAMIZGA SUV, OILAMIZGA

Boshlanishi 1-betda

Otam bir rivoyatni ko'p takrorlardi. Boy yakka-yolg'iz o'g'liga “Mendan keyin yeganing asal bo'lsin”, deb vasiyat qilindi. O'g'il otasining aytganiga amal qilib, meros bo'lib qolgan boyliklar hisobidan asal, turli noz-ne'matlar yeb, mehnat qilmay, rohat-farog'atda kun o'tkazibdi. Vaqti kelib otasidan qolgan boylik poyoniga yetibdi. Asalu shirinliklar sotib olgani davlati, mablag'i qolmabdi. Nima qilarini bilmay yo'lda borayotib, bir dehqonga ko'zi tushibdi. Borib bir necha kundan buyon hech narsa yemagani, puli, davlati yo'qligi, imkon bo'lsa bir burda non va suv berishni iltijo qilindi. Dehqon dala yumushlariga bir oz ko'maklashib yuborishni so'rabdi. Yigit yer chopib, ariq ochibdi, urug' sepib, nihol ekibdi. Tushlikda oddiy dasturxon atrofida bir burda non bilan suv ichibdi. Bu ne'matlar shu qadar shirin, mazali ekaniga hayron qolibdi.

— Esimni tanibmanki, asal, sarxil noz-ne'matlar yeb yuraman. Biroq ularning hech biri bugungidek totli emas. Buning siri nimada? — deya dehqonga yuzlanibdi.

— Halol mehnat orqali topilgan rizq-ro'zning ta'mi, qadr-qimmatli shunaga shirin bo'ladi, — deb javob beribdi dehqon.

Shu voqea sabab yigit qishloqdagi eng mirishkor dehqon sifatida elda nom chiqargan ekan.

Bu bir rivoyat, ammo uning zamirida to'g'rilik, shukronalik bilan yashash, ezgu maqsad yo'lida mehnat qilish, intilish, sabr-bardosh singari odamiylik fazilatlarini bo'y ko'rsatib turganini ilg'ab olish kerak.

Dehqonchilik, tomorqadan foydalanish biz uchun begona emas. Qadri baland qadriyatlar asrlar davomida shakllanib kelgan. Lekin bugungi tomorqachilikda ish amallari o'zgardi, yangi tajribalar ommalashyapti. Sohaga ilm kirib keldi, yangicha usulda serhosil, ertangi navlar yaratish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'lami oshdi. Mehnat qilaman deganga hamma narsa yetarli.

Rishton tumanidagi Amirobod qishlog'ida yashovchi A'zamjon Pozilov 1986-yilda Boshqiriston atom elektr stansiyasi fojialarini bartaraf etishda ishtirok etib, nogironlik nafaqasiga chiqqan. Ammo harakat, izlanishdan to'xtaganini yo'q. Farzandlariga bosh bo'lib, besh sotix



tomorqadan yil davomida unumli foydalanib daromad oladi. O'g'il-qizlarni kasb-hunarga o'qitish, uy-joy, mashina — mehnat ortidan topilgan boylik mahsuli. Bu yilgi mavsumda pilyonka oshida ertangi bodring ekdi, zamonaviy isitish, tomchilatib sug'orish tizimidan foydalanishni yo'lga qo'ydi. Bodring hosilga kirganiga bir oydan oshdi. Dastlabki o'ning o'zida 30 million so'mdan ortiq daromad olindi. Yig'im-terim mavsumi



To'qimachilik

Bundan bir necha yil oldin “Jizzax viloyatidan Xitoyga to'qimachilik mahsulotlari eksport qilinadi” degan gapga birov ishonmasdi. Chunki iqtisodiyotining asosiy sohasi paxtachilik bo'lgan viloyatda bu mahsulotni qayta ishlaydigan sanoat korxonalari deyarli yo'q edi. Bori ham xomashyoga birlamchi ishlov berishdan nariga o'tmagan.

2017-yildan boshlab hududda yetishtirilayotgan paxta hosili yuz foiz qayta ishlanilgan. Ayni paytda viloyatda “O'zto'qimachilik sanoati” uyushmasi tarkibidagi 120 ga yaqin to'qimachilik va tikuvchilik korxonasi mavjud. Bu korxonalar yiliga 80 ming tonna ip-kalava, 17 million kvadrat metr gazlama, 26,6 tonna trikotaj mato, 9,7 million juft paypoq, 44,4 millionta tayyor kiyim va boshqa trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Sohaning rivojlanishida qishloq xo'jaligida klasterlar faoliyati yo'lga qo'yilgani muhim ahamiyat kasb etdi. Mamlakatimiz paxta-to'qimachilik sohasidagi yuzdan ziyod klaster paxta yetishtirish, yig'ishtirib, birlamchi va chuqur qayta ishlash, eksport qilish bilan faol shug'ullanmoqda.

Jizzaxda ham paxta-to'qimachilik klasterlari hudud iqtisodiyotining harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda. Ayni paytda viloyatda “Jizzax kentsks”, “Agro elegand klaster”, “Jizzax industrial to'qima”, “Sangzortekstil”, “Mirzachul agroklastergroup”, “Silverleaf”, “Paxtakor teks” kabi paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyat yuritmoqda. Ushbu klasterlar xomashyo yetishtirishdan tortib, kalava ip tayyorlash, to'qish, rang berish va qayta

ishlangan mahsulotni iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan jarayon qamrab olingan loyihalarni amalga oshirmoqda. Natijada paxtani qayta ishlash orqali yuqori qo'shimcha qiymatga ega, tashqi bozorda talab yuqori mahsulot tayyorlash hajmi oshishi, ushbu korxonalarning iqtisodiy sharoiti yuksalishi barobarida yangi ish o'rinlari ochish imkoniyati ham paydo bo'lmoqda.

“Paxtakor Teks” MCHJ qo'shma korxonasi viloyatdagi faol klasterlardan. 2018-yili Paxtakor tumanida faoliyat boshlagan mazkur korxona Shveysariya, Yaponiya, Turkiya, Hindistonning eng zamonaviy to'qimachilik uskunalari bilan jihozlangan. Umumiy qiymati 22,3 million dollar bo'lgan loyihaning birinchi bosqichida yiliga 8000 tonna ip-kalava ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan bo'lsa, ikkinchi bosqichda yiliga 7000 tonna rangli mato ishlab chiqarila boshladi hamda qo'shimcha 600 ta ish o'mi ochildi. O'tgan yili mazkur korxonada tayyorlangan 10 million dollarlik mahsulot Rossiya va Turkiyaga eksport qilindi.

— Mamlakatimizda majburiy mehnatni cheklash bo'yicha sa'y-harakatlar natijasida o'zbek paxtasiga qo'yilgan boykot olib tashlandi va jahondagi barcha paxta xaridorlari uchun O'zbekiston bozori qayta ochildi, — deydi

JIZZAXDAN XITOIYGA MAHSULOT
SOTAMIZ, DESA ISHONMAS EDIK...

korxona direktori Ilhom Abdurahmonov. — Bu esa biz, tadbirkorlarga ulkan imkoniyatlar yaratmoqda. Faoliyatimizni kengaytiraymiz. Keyingi bosqichda qo'shimcha trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish loyihasini amalga oshirib, yana 500 mahalliy yigit-qizni ish bilan ta'minlashni rejalashtirganimiz. Bundan tashqari, mamlakatimizda tadbirkorlarga yaratilayotgan imtiyozlardan unumli foydalanib, korxonamiz yonida 240 o'rinni maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda non sexi quryapmiz.

Darhaqiqat, mamlakatimizda paxtachilik rivoji bilan birga xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan jarayonni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilyapti. Natijada xomashyodan tayyor, eksportbop mahsulot ishlab chiqarish hajmi ortmoqda. Misol uchun, joriy yilda “Newland”, “Farali”, “Toshtepa tekstil”, “Zarista Tex” kabi yetakchi korxonalar eksport hajmini 2,8 barobar oshirishni rejalashtirgan.

— Jizzax viloyatida to'qimachilik sanoati jadal rivojlanayotgan sohalardan, — deydi



“O'zto'qimachilik sanoati” uyushmasining viloyatdagi vakili Samarand O'ktamov. — 2024-yilda “O'zto'qimachilik sanoati” uyushmasining hududdagi korxonalari tomonidan 62 million dollarlik tayyor mahsulot eksport qilindi. Eksportdagi eng katta ulush Xitoy, Rossiya va Turkiya hissasiga to'g'ri keladi. 2025-yilda 3000 tonna ip-kalava, 1,1 million juft paypoq, 4,4 million dona tikuv-trikotaj, 5000 tonna trikotaj mato ishlab chiqariladi. 2026-2027-yillarda 81 ming tonna tola, 81,7 ming tonna ip-kalava, 42,6 ming tonna trikotaj mato, 17 million kvadrat metr gazlama, 11,9 million juft paypoq, 57 million dona tikuv-trikotaj, 277,7 ming dona tikuv mahsulotlari ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

“Jizzakh Textile” MCHJ viloyatdagi eng yirik va ilk tashkil etilgan to'qimachilik korxonalaridan. Tashkil etilganiga qariyb 15 yil bo'lgan ushbu korxona Yevropaning eng so'nggi rumumdagi zamonaviy dastgohlari bilan jihozlangan. Yildan yilga ishlab chiqarish salohiyati, mahsulotlar turi va hajmi, eksport miqdori va geografyasi ham oshib bormoqda. Korxona faoliyatining dastlabki yilida 10 million AQSH dollaridan ko'proq qiymatdagi mahsulot eksport qilingan bo'lsa, o'tgan yili bu ko'rsatkich bir necha barobar oshdi.

O'tgan yili korxona muassisligida Jizzax shahrida yana bir yirik to'qimachilik korxonasi ochildi. Loyiha qiymati 75 million yevro, yillik quvvati 15000 tonna paxtani qayta ishlashga mo'ljallangan ushbu korxonaning

Karmana tumani Navoiy shahri hududini o'rab turadi. Yirik sanoat korxonalarning aksariyati mazkur tumanda yoki unga yondosh hududda faoliyat yuritadi. Shu bois, tuman hududida yashil maydonlarni kengaytirish va “yashil belbog”lar tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, yirik sanoat korxonalarning atrof-muhitga zararli ta'sirini kamaytirishda ham yashil hududlarni ko'paytirish asosiy yechimlardan biridir. Har yili bahor va kuz mavsumida o'tkazib kelinayotgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ushbu dolzarb masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda.

NAVOIYDA “YASHIL
BELBOG”LAR KENGAYMOQDA

Loyihaning joriy yilgi bahor mavsumida Karmana tumanidagi bo'sh maydonlar va cho'l hududiga tutash joylarga daraxt ekish uchun 100 gektar yer ajratilib, viloyat tashkilotlariga birlashtirildi. Avvalgi yillarda ilmiy yondashuvlar yo'qligi va iqlimga mos daraxt ko'chatlari yoki sug'orish tizimi bo'lmagan yerlar tanlangani bois, ekilgan ko'chatlar nobud bo'lgani kuzatilgandi. Joriy yilda esa viloyatning iqlim sharoiti va Fanlar akademiyasi tavsiyalaridan kelib chiqib, suvsizlikka va kasalliklarga chidamli gujum, qayrag'och, katalpa, akatsiya, zarang, shumtol, tut va terak kabi daraxt turlari tanlab olindi.

Karmana tumanida “yashil belbog” yaratish va yashil hududlarni kengaytirishga viloyatdagi barcha tashkilotlar, faollar, nuroniylar va yoshlar jalb etilgani bu masalaning Navoiy viloyati havosi uchun ahamiyati katta ekanidan dalolat beradi.

Yirik tog'-kon, metallurgiya, kimyo, energetika korxonalari viloyat iqtisodiyotining asosiy drayverlari bo'lib, ishlab chiqarish ko'lami yildan yilga ortib borayotir. Shu bilan birga, ularning atmosfera havosiga zararli ta'sirini kamaytirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, Navoiy, Zarafshon shaharlari, Karmana va Uchquduq tumanlarida bir necha yirik korxona borligi uchun ushbu hududlarda havo ifloslanishi ko'proq kuzatiladi.



Xususan, Navoiy shahri aholisi va mehmonlari sifati buzilgan havodan nafas olishiga to'g'ri keladi. Sababi yirik korxonalar shaharga yaqin hududda joylashgan. Misol uchun, kimyo sanoatida yetakchi o'rin tutadigan “Navoiyazot” aksiyadorlik jamiyatida bugungi kunda bir necha turdagi mahsulot ishlab chiqariladi va ular soni yildan yilga oshib bormoqda. Jumladan, korxonada 2020-yilda 59 turdagi mahsulot tayyorlangan bo'lsa, 2024-yilda ular soni 80 turdan oshdi. Bu esa o'z-o'zidan havoga ham zararli ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Karmana tumanida “yashil belbog” yaratishda ushbu jihatlarining barchasi inobatga olindi.

— Mazkur xayrli tadbirlarda viloyatimiz nuroniylari ham faol ishtirok etmoqda, — deydi “Nuroniylar” jamg'armasi Karmana tumani bo'limi raisi O'tkir Rajabov. — Yashil hududlarni kengaytirish inson salomatligi bilan bog'liq. Havo toza bo'lsa, hayot sog'lom kechadi. Navoiy shahri va Karmana tumani ahli yirik sanoat korxonalaridan chiqayotgan zaharli havodan ko'p yillardan buyon aziyat chekib kelgan. Ko'rilgan chora-tadbirlar yoki yashil maydonlar kengayishi natijasida hudud havosi avvalgi yillardagiga qaraganda yaxshilab borayotir. Buni o'zida his qilgan nuroniylar bu yil ham barchaga o'nak bo'lib, daraxt ko'chatlari ekyapti.

“Yashil makon” umummilliy loyihasining joriy yil bahorgi mavsumida Karmana tumanida 1 million tupdan ziyod daraxt ko'chati ekish rejalashtirilgan. Bugungacha 70 foizdan ortiq ish bajarilib, jarayon tunning barcha mahallalarida uyushqoqlik bilan davom etmoqda.

Viloyatdagi yirik sanoat korxonalari ham “yashil belbog” yaratish va ishlab chiqarishning atrof-muhitga zarari kamaytirish maqsadida qator chora-tadbirlar ko'rmoqda. Qolaversa, Prezidentimizning 2024-yil dekabrda “Navoiy viloyatini iqtisodiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorida viloyatda “yashil belbog”lar yaratish va cho'llanishga qarshi kurashishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Qarorga ko'ra, joriy yilning bahor va kuz mavsumidan boshlab “Qizilqumsement”, “Navoiyazot”, “Navoiy issiqlik elektr stansiyasi” va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatlar tomonidan Navoiy shahri va Karmana tumani markazi atrofidagi 300 gektarda, Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan Zarafshon shahri atrofida va “Navoiyuran” AJ tomonidan Uchquduq tumani markazi va Zafarobod qo'rg'on atrofida “yashil belbog”lar tashkil etiladi.

— Prezident qarori ijrosi doirasida joriy yilda “Navoiyazot” AJ tomonidan 85 gektar maydonda “yashil belbog” yaratiladi, — deydi korxona mas'ul xodimi Tolmas Ro'zimurodov. — Ayni vaqtda Navoiy shahri hududidagi 5 gektar va Karmana tumanida joylashgan 30 gektar yerda daraxt ko'chatlari o'tqazish davom etmoqda. Ko'chatlar mutaxassislar ishtirokida tanlanib, iqlim sharoiti, sug'orish tizimi va boshqa omillar hisobga olindi.

Navoiy viloyatida “Yashil makon” loyihasining joriy yil bahorgi mavsumida 8 milliondan ziyod mevali va manzarali daraxt ekish rejalashtirilgan. Viloyat aholisi har yilgidek bu yil ham ushbu xayrli jarayonda hamjihatlikda, ko'tarinki kayfiyatda faol ishtirok etmoqda.

G'olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

birinchi bosqichda paxtadan ip-kalava tolasi tayyorlansa, ikkinchi bosqichda tayyor mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

— Biz ish boshlagan joyda o'tgan asrning 70-yillarida davlat va jamoat arbobi Sharof Rashidov tashabbusi bilan barpo etilgan tekstil korxonasi faoliyat yuritgan, — deydi korxona iqtisodchisi Nozimjon Ibrohimov. — Ammo ancha yil avval korxona tugatilgandi. Mana, yana yillar o'tib, eski korxona o'mida yangi kombinat faoliyat boshladi. Hozir 350 xodim ishlayapti. Ular ishga kelib ketishi uchun transport, uch mahal issiq ovqat, yetarli maosh bilan ta'minlangan. Korxona to'liq quvvat bilan ishlashga o'tgach, ish o'rinlari soni 2000 dan oshadi. Korxonamizga Yevropaning zamonaviy dastgohlari o'rnatilgan. Joriy yil boshidan korxonamizda 2 milliard so'mlikdan ziyod mahsulot ishlab chiqardik. Hozircha tayyor mahsulotimizni faqat ichki bozorda sotaymiz. Kelajakda Markaziy Osiyo, Osiyo va Yevropa davlatlariga eksport qilmoqchimiz.

— Shu mahallada turaman, korxonamiz uyimga yaqin, — deydi korxona ishchisi Nasiba Qo'ldosheva. — Oyligimizni vaqtda olamiz, issiq ovqat bilan ta'minlanganimiz. Mana shunday zamonaviy dastgohlarda ishlayotganimdan xursandman. Bir vaqtlar buvim shu korxonada ishlagan ekan. Ushbu korxona tashlandiq holga kelgandi. Davlatimizga rahmat, mana, qayta obod bo'ldi. Menga o'xshagan yuzlab ishsizlar ish bilan ta'minlandi.

Viloyat to'qimachilik tarmog'ida qilinayotgan ishlar va kelgusidagi ulkan rejalar yaqinda ushbu sohani iqtisodiyotning drayveriga aylantirishi barobarida vobaning yanada rivojlanishi, aholining turmush darajasi oshishida ham o'z aksini topadi.

Farhod NE'MATOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



MAZKUR POLIKLINIKA 200 O‘RINGA MO‘LJALLANGAN BO‘LIB, RENTGEN, UTT, STOMATOLOGIYA, FIZIOTERAPIYA, TASHXIS LABORATORIYA XONALARI ENG ZAMONAVIY USKUNALAR BILAN TA‘MINLANGAN.



“YORQIN ISTE‘DOD”

KELAJAK AVLOD MINNATDOR BO‘LADIGAN LOYIHA

Yurtimizda xorijiy tillarni o‘rganib, nufuzli oliygo‘hlarda o‘qishni niyat qilgan yoshlar orasida “El-yurt umidi” jamg‘armasi haqida eshitmaganlar, bilmaganlar topilmasa kerak. Sababi bu jamg‘arma allaqachon yosh avlodning maqsad mayog‘iga aylanib ulgurgan.

“El-yurt umidi” sovrindori bo‘lishning gashtini ham yoshlardan so‘ragan yaxshi! Biroq talabning yuqoriligi tufayli uning g‘olibi bo‘lish hammaga ham nasib etavermaydi. Shu bois, aksariyat yoshlarda “Men baribir g‘olib bo‘la olmayman” degan stereotip shakllanib qolganini ham istisno qilmaslik kerak. Endi esa vaziyat boshqacharoq bo‘ladi. Gap nimada deysizmi?

Davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar bilan ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra, 2025-yildan “El-yurt umidi” jamg‘armasining yangi stipendiya yo‘nalishi sifatida “Yorqin iste‘dod” loyihasi joriy etiladi. Bunda har yili iqtidorli, bilimga chanqog‘, og‘ir oilaviy sharoiti sababli o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lmagan kambag‘al oilalar farzandlarini mahallalardan izlab topish lozimligiga urg‘u berilgan. Demak, loyihaning qamrovi mamlakatimizning eng chekka hududlari — qishloq, ovullargacha yetib boradi. Xorijda o‘qish orzu bo‘lgan bu yerdagi yoshlar mutaxasssiga aylanib kelib, o‘z hududida faoliyat yuritib boshlaydi. Tabiiyki, ular endi jarayonni o‘zi ta‘lim olgan ilg‘or tajribalar asosida tashkil etadi.

mavjud ehtiyojni to‘la qoplay olmaymiz. Bu esa o‘z-o‘zidan xorij tajribasiga ehtiyojni paydo qiladi. Bugunga qadar “El-yurt umidi” orqali xorijda o‘qib yoki malaka oshirib qaytganlar bu ehtiyojni muayyan hajmda qoplab kelgan bo‘lsa, “Yorqin iste‘dod” loyihasi bu miqdorni sezilarli ravishda oshiradi. Natijada mamlakatimiz mehnat bozori malakali kadrlar zaxirasini bilan yetarlicha boyiydi.

Uchinchidan, loyiha natijasida yurtimizda xalqaro darajadagi ta‘lim muhiti qamrovi kengayadi. E’tibor bergan bo‘lsangiz, farmonda iqtidorli, bilimga chanqog‘, og‘ir oilaviy sharoiti sababli o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lmagan kambag‘al oilalar farzandlarini mahallalardan izlab topish lozimligiga urg‘u berilgan. Demak, loyihaning qamrovi mamlakatimizning eng chekka hududlari — qishloq, ovullargacha yetib boradi. Xorijda o‘qish orzu bo‘lgan bu yerdagi yoshlar mutaxasssiga aylanib kelib, o‘z hududida faoliyat yuritib boshlaydi. Tabiiyki, ular endi jarayonni o‘zi ta‘lim olgan ilg‘or tajribalar asosida tashkil etadi.



yuborish uchun tayyorgarlik kurslarida o‘qitish kabi vazifalar nazarda tutiladi.

Mazkur loyiha uchun joriy yilda “El-yurt umidi” jamg‘armasiga 300 milliard so‘m ajratiladi. Shuningdek, jamg‘arma orqali xorijiy mamlakatlarda ta‘lim olib qaytgan stipendiadlar milliy kadrlar zaxirasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri kiritiladi hamda ular davlat organlari, tashkilotlari va muassasalariga tanlovsiz ishga olinadi.

Yoshlarga yaratilayotgan ayni imkoniyatning ahamiyati qanday?

Eng avvalo, bu loyiha yoshlar orasida ijtimoiy tenglik yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Aslida, ijtimoiy tengsizlik mavjudligi demokratik jamiyatlarga xos jarayon. Sababi har bir inson o‘z mehnati va intilishlariga yarasha natijaga erishishi demokratik jamiyatlarining adolati hisoblanadi. Biroq mamlakatimiz tanlagan taraqqiyot yo‘li insonparvarlikka asoslangani bois, ijtimoiy tenglikni ta‘minlashga katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu o‘z-o‘zidan yurtdoshlarimiz, jumladan, yoshlar dunyoqarashida ichki ishonchni mustahkamlaydi.

Xalqimiz tabiatan shunday — bir-biriga hamisha havas qiladi. Onalarimizning el nazariga tushgan insonlarga qaratib “Bolalarimiz sizga o‘xshasin”, deya aytadigan niyatida ham xuddi shu insoniy tabiat mujassam. Endi tasavvur qiling, yurtdoshlarimiz orasida “El-yurt umidi” tufayli xorijda o‘qib kelganlari ularga havas qilish yurganlar qancha! Shu ma’noda, bu loyiha minglab havasmandlarning orzusini tobora yaqinlashtiradi.

Ikkinchidan, loyiha natijasida mamlakatimizning kadrlar quvvati yanada boyiydi. Zero, kadrlar masalasi jamiyat taraqqiyotida juda muhim masala. Afsuski, yurtimizda bu masalaga uzoq yillar davomida yetarli e’tibor qaratilmadi. Natijada ta‘lim tizimi va mehnat bozori orasidagi bog‘liqlik uzilib, ular bir-biridan deyarli bexabar faoliyat yuritib keldi. Quvonarlisi, so‘nggi yillarda ular orasidagi integratsiya jadal rivojlanish bosqichiga kirdi. Biroq biz hali ham

Bir chelak suvga bir tomchi rang solsangiz, hamma suv o‘sha rangga aylangani kabi bu yoshlar ham ta‘lim muhitini zamonaviylashtirishga katta hissa qo‘shadi. Xo‘sh, bunday yoshlarni tanlab olishning tartibi qanday? Bu qanday tizim asosida amalga oshiriladi?

— Bunda, eng avvalo, mahalla mas’ullari hamkorligida har bir mahalladagi ehtiyojmand oilalarning iqtidorli, yorqin iste‘dodli farzandlari tanlab olinadi, — deydi Yoshlar ishlari agentligi mas’ul xodimi Isroil Tillaboyev. — Ularning ma’lumotlari yagona platformaga yuklanadi hamda to‘liq bazasi shakllantirilgandan so‘ng, birinchi navbatda, salohiyatidan kelib chiqqan holda saralanadi. Ana shu saralanishdan keyin nomzodlarni o‘z iqtidoriga mos kurslarga yo‘naltirish boshlanadi. Barcha xarajatlar loyiha tomonidan ta‘minlanadi.

Asosiy maqsad — kambag‘al oilalar farzandlarining orzularini ro‘yobga chiqarish hamda ularni jahonning eng nufuzli TOP-100 talik oliygo‘hlariga tayyorlash. Ular oliygo‘hlariga yuborilgandan so‘ng ham barcha xarajatlar “El-yurt umidi” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

— “El-yurt umidi” jamg‘armasiga g‘olib bo‘lib, TOP-100 oliygo‘hlarida o‘qib kelish orzum edi, — deydi qashqadaryolik Og‘abek Ro‘ziyev. — Lekin oilaviy sharoitimizni hisobga olganda, bu unchalik ham oson tuyulmayotgandi. Televizorda mazkur loyiha haqida eshitib, tinchim yo‘qoldi. Ertasiga mahallamizdagi yoshlar yetakchisi bilan bog‘landim. Uning aytishicha, hozir tashkiliy jarayonlar davom etmoqda. Nasib etsa, albatta, “Yorqin iste‘dod” loyihasi tufayli xorijda o‘qib kelib, tumanimiz, viloyatimiz, qolaversa, butun vatanimiz rivoji uchun xizmat qiladigan kadr bo‘laman.

Yoshlar orasida ijtimoiy tenglikni yanada mustahkamlashga, iqtidorlarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi bu loyiha, o‘ylaymizki, kelgusida kutilganidan ham yuqori natijalar berajak.

Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

TAXIATOSHDA YANGI SHIFO MASKANI:

“YAGONA TIBBIYOT AXBOROT TIZIMI” YO‘LGA QO‘YILDI

Boshlanishi 1-betda

Samarqandlik tadbirkor Zafar To‘rayevning homiyligida bunyod etilgan yorug‘, keng va zamonaviy oilaviy poliklinikada zarur tibbiy uskunalar o‘rnatilgan, shifokorlar va bemorlar uchun qulay sharoit yaratilgan. Yangi oilaviy poliklinika imoratining tashqi va ichki dizayni ko‘pchilikka ma’qul. Poliklinikaga kirish yo‘lagi cheti, atrofiga gullar ekilgan.

— Oilaviy poliklinikamizda bemorlarga oid shaxsiy ma’lumotlar yetarli darajada himoyalangan, axborot tizimlari o‘zaro integratsiya qilingan. Oldin bemor shifokor qabulida 40 daqiqa navbat kutgan bo‘lsa, bugun “Yagona tibbiyot axborot tizimi” joriy etilgani tufayli bu muddat 10 daqiqaga tushdi. Shu bilan birga, shifokor qabulidan 15-20 daqiqada chiqib ketmoqda. Bemorlarning tibbiy ma’lumotlarini elektron shaklda saqlash imkoniyati yaratilmoqda. Tizim mijoz yuzini aniqlash dasturlari orqali darhol xizmat ko‘rsatish rejimiga o‘tadi. Ya’ni mijozning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar so‘rash bilan bog‘liq ovoragarchilikka chek qo‘yildi, — deydi poliklinika bosh shifokori Dilbar Urazbayeva. — Mazkur tizim aholi salomatligini saqlash, tashxis

qo‘yish, tahlil qilish, kasallikni erta aniqlash va samarali davolash bilan bog‘liq ish jarayonlarini muvofiqlashtirishda ishonchli tuzilmaga aylandi. Endi fuqarolar “Elektron poliklinika” orqali ro‘yxatga olingach, oilaviy shifokorga yo‘naltiriladi. Shifokor bemor uchun zarur tekshiruvlarni belgilab bergach, shu asosda tor soha mutaxassislari yoki laborator tahlil namunalari topshirishi mumkin. Bu jarayon fuqaro va shifokor vaqtini tejab, barcha tahlil avtomatik tarzda oilaviy shifokorga ko‘rinib turadi. Mutaxassis

tutqazardi. Shuningdek, kerakli shart-sharoitlar yo‘qligi, ortiqcha qog‘ozbozlik, vaqt bilan bog‘liq holatlar bemor salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatgani ayni haqiqat, — deydi bosh hamshira Farida Shomuratova. — Yangi poliklinikamiz 1-apreldan ish boshlagan bo‘lsa ham qisqa muddatda ko‘pchilikka ma’qul keldi. Uyma-uy yurib, bemorlar holidan xabar oladigan patronaj hamshiralarimiz planshet bilan ta’minlangan. Hududdagi bemorlar uchun 90 turdagi dori-darmon bepul beriladi. Shunday sharoitda aholiga sidqildidan yordam berayotganimizdan juda baxtiyormiz.

Ushbu tibbiyot xodimlari timsolida xalq salomatligi yo‘lida halovatlardan kechib, kunni tunga ulab, fidokorona mehnat qilayotgan sharaflari kasb egalarining berilgan imkoniyatlardan samarali foydalanayotganini ko‘rdik.

— Qon bosimim tez-tez ko‘tarilishi bois, shifokor qabuliga kelib turaman, — deydi 59 yoshli Almagul Utemuratova. — Mahallamiz hududida barpo etilgan zamonaviy oilaviy poliklinikadagi sharoitlarni ko‘rib, juda xursand bo‘ldim. Oldinlari shifokor eshigi oldida soatlab turishga majbur bo‘lardik. Hozir, mana, qisqa vaqtda navbatim bilan shifokor ko‘rigidan o‘tdim. O‘zimni yaxshi his

etyapman. Bugungi sharoit juda qulay: ortiqcha vaqt, bordi-keldi bilan bog‘liq ovoragarchiliklarga barham berilgan.

Davlatimizda tibbiyot sohasi tez rivojlanmoqda. Moddiy-texnik baza mustahkamlandi. Eng so‘nggi rusumdagi zamonaviy uskunalar aholi xizmatiga shay. Bundan tashqari, malakali shifokorlar ko‘paymoqda. Sog‘liqni saqlash sohasiga qaratilayotgan e’tibor tufayli Qoraqalpog‘istonning chekka hududlaridagi oilaviy poliklinikalar ham tiklanmoqda.

— Ilgari birgina muolaja uchun bir kun vaqtimizni sarflashga majbur bo‘lardik. Hududimizda shinam poliklinika qurilgani barchamizga qulaylik tug‘dirmoqda. Oilaviy poliklinikaga kelib, mutaxassis ko‘rigidan o‘tdim. Sharoitlari juda yaxshi. Xonalari yorug‘, zarur jihozlar bilan ta’minlangan. Endi doimo salomatligimizga e’tiborli bo‘lib, yaratilgan imkoniyatdan to‘g‘ri foydalanamiz, — deydi Aygul Pirlpesova.

Salomatlik nainki insonning o‘zi, balki jamiyat uchun ham juda katta va bebaho boylik. Har tomonlama sog‘lom insonlardan iborat jamiyat esa taraqqiyot sari dadil odimlaydi. Shu bois, sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilish, tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati va samardorligini yanada yuksaltirish, tizimni zamon talablari, dunyo tibbiyoti andozalari darajasida rivojlantirish bosh maqsaddir.

Minajatin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



“BARCHASIGA KUCHNI KITOB DAN OLAMAN”

Oramizdagi odamlar

Xalqimizda “Yaxshidan bog‘ qolar” degan naql bor. Umri davomida kimdir yaxshilik bilan o‘zidan nom qoldiradi. Yana kimdir vaqtini behuda sarflab, umri o‘tib ketganini sezmay qoladi. Har daqiqani g‘animat bilgan kishi doim el orasida xayrli amallar urug‘ini sochishga intiladi. Nodira Safarovaning taqdiriga imkoniyati cheklangan holda umr kechirish bitilgan ekan. U bundan biror marta bo‘lsa-da nolinmaydi. Aksincha, shukrona aytib, faqat olg‘a intiladi. Ko‘proq kitob o‘qib, faol harakat uchun o‘zida kuch topa oladi.



Bugun u qishloqdagi eng mehnatkash odamlardan. Hovlisida turli sabzavot mahsulotlari, har xil mevani topish mumkin. Uy sohibasi imkon darajasida tomorqasida bir qarich yerni ham bo‘sh qoldirmaslikka odatlangan. Bo‘sh vaqt topdi deguncha yerga urug‘ qadashga intiladi. Aslida, katta tomorqasida yetishtirilgan mahsulotlar bir o‘ziga ko‘plik ham qiladi. Biroq ayolning yaxshi odati boti: hosil yig‘ib olingach, albatta, erinmay qo‘ni-qo‘shni, qarindosh-urug‘larga taqatib chiqadi.

Erta tongdan o‘z qo‘li bilan ekan, hozir boqqa o‘zgacha chiroy baxsh etib, qiyg‘os gulga

kirgan daraxtlari bilan suhbat qurdi. Ularni birma-bir ko‘zdan kechirib, hol-ahvol so‘ragan bo‘ldi. Shundan keyin tomorqaga qarab yo‘l oldi. U yerda yaqinda ekilgan pomidor nihollarga qarab, sug‘orish kerakligini angladi. Narigi tarafa esa piyoz, bodring ekish zarurligi haqida o‘yladi. Qolgan joylarga ham navbati bilan poliz mahsulotlari ekish zarur. Shularni reja qilgan ayol kun davomida bajarishi lozim bo‘lgan ishlarni o‘zicha taqsimlab oldi.

Qamashi tumani G‘ishtli qishlog‘ida yashayotgan Nodira Safarova og‘ir yumushni bajarolmasa-da, tomorqachilikda ko‘pga o‘rnak. Hudud faollarining aytishicha, u

qishloq ayol-qizlari orasida ilk bor iqtisodiyot yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotli mutaxassis diplomini olgan. Shundan so‘ng hududdagi tashkilotlarda turli lavozimlarda faoliyat yuritib, el orasida matonatli, ko‘pchilikka yordami tegib yuradigan inson sifatida e’tirof etiladigan bo‘lgan. Ayni paytda nafaqaga chiqib, uyida mo‘jazzina kutubxona ochgan.

— Bolaligimdan kitob o‘qishni yaxshi ko‘rardim, — deydi Nodira opa. — Mana shu kutubxonadagi kitoblarning barchasini o‘zim o‘qish uchun xarid qilganman. Har safar maosh oldim deguncha birorta badiiy adabiyot sotib olardim-da, o‘qishga tushardim. Bu odatim

hozir ham qolmagan. Keyinchalik qarasam, kitoblarnim soni ko‘payib qolibdi. Shuncha kitob behuda turgandan ko‘ra ko‘pchilik foydalanishi degan maqsadda kutubxona ochdim. To‘g‘ri qilgan ekanman. Nega desangiz, kitobga mehr qo‘yg‘anlar safi anchagina. Hozir qishlog‘imizning yoshu qarishi shu yerdan kitob olib, mutolaa qilmoqda. Buni ko‘rib xursand bo‘laman. Oddiygina xona bo‘lgani bilan odamlarga nafi tegayotgani yaxshi bo‘ldi. Ayniqsa, keksalar uchun ancha qo‘l keldi.

Ayrimlari o‘zlaridagi bor kitoblarni keltirib, shu yerga joylashtirib qo‘ymoqda. Bundan yoshlar ham o‘mak olib, kutubxonamizni boyitishga yordam beryapti. Eng muhimi, mutolaa qiluvchilar safi kengaymoqda. Hozir Nodira opa hovlisining bir chetida 20 ga yaqin tovuq boqmoqda. Bundan tashqari, tomorqadan unumli foydalanib, daromadini oshirish rejai ham bor. Hovlisiga ekilgan 100 tupga yaqin mevali daraxt mavsumda yaxshi mablag‘ keltirishi shubhasiz.



— Iqtisodchi bo‘lganim bois, imkon darajasida hisob-kitob bilan yashashni yaxshi ko‘raman, — deydi Nodira Safarova. — Qishloqda ilk bor xotin-qizlar orasida shu yo‘nalishga o‘qishga hujjat topshirganimda ko‘pchilik hayron qolgandim. Bu soha bo‘yicha ishlab ketishimga ayrimlar ishonmagandim ham. Ammo men ortga qaytmasdan faqat astoydil o‘qidim. Mana, kam bo‘lmadim. Shu bo‘yicha ishlab, nafaqaga chiqdim. Yaxshi ishlaganim bois, hozir ham yo‘qlab kelib, maslahatlarimni olishadi.

Mahalla yoki tashkilot eshigini taqillatib, yordam so‘rab bormagan ayol ko‘plarga yordam qo‘lini cho‘zib yurishni kanda qilmaydi. Gohida ayrim nohaqlikka uchragan xotin-qizlarga yordam berib, huquqini tiklash uchun ko‘maklashadi. Xususan, yaqinda qishloqdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj ikki ayolning nomiga bir kishi bildirmay, noqonuniy yo‘l bilan kredit olgan. Natijada ikki oilaga yo‘q joydan moddiy zarar yetadigan bo‘ldi. Bundan xabar topgan opa ayollarni o‘z yoniga olib, ularga huquqiy maslahat berdi. Gohida o‘zi bosh bo‘lib, huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlarga bordi. Haqiqat qaror topdi: ikki ayolga jabr yetkazmoqchi bo‘lganlarning xatti-harakatiga huquqiy baho berilib, jazoga tortiladigan bo‘ldi.

Nodira Safarovaning maqsadlari bisyor. U, eng avvalo, kutubxonasini yanada kengaytirib, mahalla yoshlari uchun qulaylik yaratish istagida. Bundan tashqari, imkoniyati cheklanganlar bandlegi ta’minlanishi uchun yangi ish o‘rinlari ochish ustida ishlamoqda.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

SAHNADAN BAXTINI TOPGANLAR

Adabiyot, sanʼat va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi.

Shavkat MIRZIYOYEV,
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti

Madaniyat va sanʼat vakillari — baxtli insonlar. Ular eng sharafli yoʻlda. Yangi Oʻzbekistonda soha vakillariga eʼtibor yuksak pogʻonaga koʻtarildi. Xususan, toʻrt yildirki, yurtimizda Madaniyat va sanʼat xodimlari kuni nishonlab kelinmoqda. Bu ragʻbat soha vakillarining oʻz ishiga mehri, ishtiyoqini yanada oshirmoqda. Sana munosabati bilan turli tadbirlar tashkil etilib, soha fidoyilari munosib taqdirlanmoqda. Oʻtgan yili 280 madaniyat va sanʼat fidoyisi mukofotlangan. Bu yilgi raqamlar salmogʻi ham bundan kam emas. Shunday insonlar bilan suhbatlarda koʻngilga ilqlik inadi, yuzga tabassum yuguradi.

**MADANIYAT MARKAZIDAN —
PARLAMENTGACHA**

Guldana AVEZDURDIYEVA,
Respublika turkman milliy madaniyat markazida
madaniy markazi rahbari,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati:

— Qaysi vazifani bajarmang, unga mehr bilan yondashsangiz, natijaga erishasiz. Respublika turkman milliy madaniyat markazida 26 yil ishlab shuni angladim. Ishxonam — ikkinchi uyimdek. Farzandlarim deyarli shu yerda katta boʻldi. Rahmatli qaynotam Oʻrinboy Qurbonovni markazning asoschisi, desam xato boʻlmaydi. Kasbi stomatolog boʻlishiga qaramay, uzoq yillar milliy madaniyatimizni asrab-avaylashga munosib hissa qoʻshgan. Qaynonam ham bu yoʻlda turmush oʻrtogʻi bilan yonma-yon ishladi. Shuning uchunmi, bu yerda faoliyat yuritish bizga oilaviy sharaf, gʻurur boʻlib qolgʻan.

2023-yili Qozoq milliy madaniyat markazi “Yilning eng yaxshi milliy madaniyat markazi” nominatsiyasiga munosib koʻrilganida doʻstona havas qilgandik. 2024-yilda bu eʼtirof bizga ham nasib etdi. Bu nafaqat Turkman milliy madaniy markaziga, balki butun turkman xalqiga berilgan mukofot, aslida. 2024-yilda Prezidentimiz biz uchun quvonchli tarixiy hujjatni imzoladi. “Buyuk turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli Firogʻiy tavalludining 300 yilligini keng nishonlash toʻgʻrisida”gi qaror bilan turkman xalqining iftixori — Maxtumquli Firogʻiyning uyubley sanasi Oʻzbekistonda ham keng nishonlandi. Yangi Oʻzbekistondagi bunday xayrli tashabbuslar koʻp millatli xalqimizning yanada ahi, birdam yashashiga sabab boʻlmoqda. Zero, qarorda aytilganidek, Maxtumquli asarlari kirib bormagan oʻzbek xonadoni, sheʼrlarini qoʻshiq qilib aytgan oʻzbek hofizi boʻlmasa kerak. Shu maʼnoda, shoir ijodi asrlar davomida ikki xalqning

ONAM TUFAYLI XALQIMIZ, VATANIM TUFAYLI ESA DUNYO TANIDI

Dilnoza MIRZAYEVA,
“Yilning eng yaxshi raqqosasi”
nominatsiyasi sohibi:

— Onam Toshkentda oʻqigan. Oʻshanda trolleybusga xoreografiya bilim yurti roʻparasidan sochi uzun, shoirilar taʼriflagandek, dilbar qizlar chiqar ekan. Onam albatta havas qilib, agar qoʻzqandim boʻlsa, albatta, shu bilim yurtida oʻqitilgan deb niyat qilgan. Oʻsha istagi tufayli raqs toʻgaragiga qatnadim. Koʻplab koʻrik-tanlovlarda ishtirok etdim.

Tanlovlarning birida Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi (hozirgi Oʻzbekiston davlat xoreografiya akademiyasi) rahbari Shuhrat Toʻxtasimov meni oʻqishga taklif qildi. Onam gʻoyat sevindi. Dadam bir oz qarshilik qildi. Chunki raqsqa qiziqishimni oʻtib ketadigan shunchaki havas deb oʻylagan ekan. Onam baribir dadamni koʻndirdi. Poystaxtga keldim. Dastlab mazkur dargoh tizimidagi ixtisoslashtirilgan xoreografiya maktab-internatida oʻqidim. Oʻqituvchilarimiz juda qattiqqoʻl boʻlib, men bilan astoydil shugʻullanardi. Dilbar Yunusova, Nigina Nigʻmatova, Gulmira Shirinovadan raqs



sirlarini oʻrgandim. 2018-yili ilk bor xalqaro koʻrik-tanlovga tayyorlandim. Kechagidek esimda: kuchli hayajonda edim. Chet elga ham, samolyotga ham birinchi bor chiqishim edi. Qozogʻistonning Olmota shahridagi “Orleu” tanlovida “Larzon”, “Suhayl va Mehri” raqsini ijro etib, 1-oʻrinni olganman. 2019-yili “Nihol” koʻrik-tanloviga tayyorlandim. Bu mukofotni olganimdan soʻng Oʻzbekiston davlat xoreografiya akademiyasiga imtiyozli qabul qilindim. Akademiyada oʻqiyotgan paytimdan hozirgacha “Navbahor” raqs ansambliida ishlab kelayapman.



SOZANDA JOʻSHQINLIK, JANGOVAR RUH UYGʻOTSA...


Saidakmal TURSUNXOʻJAYEV,
“Yilning eng yaxshi sozandasi”
nominatsiyasi sohibi:

— Sanʼat bilan bogʻliq hayotni taroziga oʻxshataman. Uning bir pallasida oila, ikkinchisida ijod turadi. Bir kuni oilaning toshi ogʻir bosadi, bir kuni ijodning. Baʼzan oilaga mehr berib, mehr olgizig keladi. Baʼzan esa ijodga shoʻngʻib, barini unutasis. Har ikkisini meʼyorda ushlab turadiganlarni oʻz sohasining ustalari deb bilaman. Biroq bundaylar juda kam. Baʼzilar sanʼat uchun hamma narsadan voz kechaman, deydi. Nazarimda, bu bir oz balandparvoz gap. Toʻgʻri, ijodda yoʻlga tushib oldingizmi, hech qachon toʻxtamaslik kerak. Biroq ayrim paytlar “shu sohani tanlamaganimda, ayni vaziyatda oʻlkaning yonida boʻlardim”, deysiz. Ha, sanʼatning tashvishi ham, quvonchi ham yetarli. Ana shunday qiyn tanlov, oʻylar iskanjasida qolganingizda sizni bir narsa — ijodningizga eʼtibor qutqaradi. Shu maʼnoda, biz, yangi Oʻzbekiston sanʼatkorlari — baxtli insonlarimiz.

Ochigʻi, mehnatning eʼtiborida boʻlsa, sohaga kerakli inson ekaningizni his qilib ishlaysiz. Shukrki, ijod, sanʼat ahlini hurmat qiladigan, munosib ragʻbatlantiradigan yurtida yashaymiz. 2005-yildan buyon hukumat darajasida oʻtkaziladigan davlat tadbirlari hamda rasmiy qabul marosimlari, xalqaro festivallarda xizmat qilaman. Bu bizga, sanʼatimizga bildirilgan ishonch, albatta. U kuch, gʻayrat bagʻishlaydi. Oʻtgan yillarda qilgan kamtarona xizmatimiz yuqori baholandi: “Oʻzbekiston belgisi” koʻkrak nishoni, “Kelajak bunyodkori” medali, “Madaniyat va sanʼat fidokori” koʻkrak nishoni, TURKSOY

“Baʼzida hammasini tashlab uyga ketaman, charchadim, degan paytlarim ham boʻldi. Lekin raqsni tashlab ketish... oʻylab koʻrsam, usiz yashay olmas ekanman. Muhimi, endi dadam meni qoʻllab-quvvatlamogda. Chunki raqsqa munosabatimni tushundi. Davlat tadbirlarida yoki “Sharq taronalari” kabi nufuzli festivallardagi chiqishlarimni faxrlanib tomosha qiladi.

Koʻpchilik raqsqa tushish maza deb oʻylaydi. Toʻgʻri, raqs ijro etish maroqli, lekin ungacha boʻlgan mashaaqatlarga chidash oson emas. Shukrki, mashaaqatli mehnatlarim meva beryapti. Oʻtgan yili eng yaxshi raqqosa deb topildim. Avvaliga bunga ishonmadim. Axir koʻplab mahoratli raqqosalar bor-ku. Yosh boʻlishimga qaramay, shuncha eʼtibor va eʼtirofdir haligacha hayajondaman. Onamning qoʻllari bilan elga tanilgan raqqosa boʻldim. Endi vatanim, xalqimiz ragʻbati sabab oʻzbek raqsini dunyoga tanitishga hissa qoʻshayotganimdan xursandman.



xalqaro tashkilotining maxsus medali bilan taqdirlandim.

“Bek” doirachilar ansamblimiz mehnati ham hamisha eʼtiborda. Ansamblda doirachilik sanʼati maktabining yuzlab munosib davomchisi mehnat qilyapti. “Yilning eng yaxshi sozandasi” maqomiga erishishimda ularning oʻrni katta. Shuning uchun mukofotni olganim zahoti menga qanot boʻlib ishlayotgan doʻstlarim — jamoamni tabrikladim. Zero, bu hamjihatlikda bajaragan mehnatimiz natijasi. Bu yilgi koʻplab mukofotlar jamoamizga yana yangi kuch, ilhom berdi.

Sanʼat oʻrtamiyonalikni xushlamaydi. U doim izlanish va sohaning yetakchisi boʻlishga undaydi. Bu gap, ayniqsa, doirachilarga koʻproq tegishli. Chunki doira — eng qadimgi sozlardan biri. Uning ohangi insoniyat qon-qoniga singib ketgan. Zoʻr sozanda doirasi bilan inson qalbidagi oʻsha qadim tuygʻularni, joʻshqinlik, jangovar ruhni uygʻotadi. Maqsadimiz — kuylarimiz orqali yoshlar ongi va qalbiga kirib borish, ularning vatanimizga munosib oʻgʻil-qizlar boʻlib ulgʻayishiga hissa qoʻshish.

MILLIY SANʼAT — IJODKORNING ENG YUKSAK MAQOMI

Adolat ISMOILOVA,
“Yilning eng yaxshi anʼanaviy ayol xonandasi” nominatsiyasi sohibi:

— Aslida, estrada yoʻnalishida tahsil olganman. Kollejda oʻqib yurgan paytlarim ham maqomga u darajada qiziqmagaman. Keyinchalik mumtoz qoʻshiqlarni tinglab yurib, ulardagi ohang, ijro, joziba va odamni oʻziga jalb qiladigan sehnri payqadim. Asta-sekin maqomni yaxshi koʻrib qoldim. Ustozim Davron aka “Imkonningiz boʻlsa, maqom yoʻnalishidagi qoʻshiqlarni ham ijro etib koʻring. Siz buni uddalaysiz, ovozingiz tembri ham tushadi. Agar shunday qilsangiz, kelajakda yaxshigina sanʼatkor boʻlasiz”, deb ishonch bildirdi. Qolaversa, onam ham maqomga juda qiziqqan. Fattohxon Mamadaliyev ansambliida qisqa muddat faoliyat yuritgan. Yolgʻiz qiz boʻlgani sabab onasi sanʼat yoʻlidan ketishiga ruxsat bermagan. Bu onamga armon edi.

Onamning qalbida mumtoz qoʻshiqlarimizga hurmat, mehr yashayvergan. Ularni sevib tinglagan, kuylagan. Maqomga qiziqish menga onamdan oʻtgan deb

ARTISTMISIZ, BOSHQA YOʻLINGIZ YOʻQ

Darina MATVEYEVA,
“Yilning eng yaxshi sirk artisti”
nominatsiyasi sohibi:

— Xoreografiya bilim yurti, Balet akademiyasini aʼlo baholarga tamomlaganman. Biroq balet men uchun yetarli emasdi. Undan oʻzim istagan zavq-shavqni ololmasdim. Bundan tashqari, ommaviy chiqishlarda raqsqa tushishni istamasdim. Negadir doim boshqalardan ajralib turishni xohlaganman. Bu istak meni sirk sanʼati tomon yetakladi. Unda adrenalin ham yetarli. Biroq sirk artistlari hayotini xavf ostiga qoʻyadi. Necha metr lab balandlikda fokuslar bajaramiz. Tomoshabin hayratini oshirgan tryuklarda mahoratimiz namoyon boʻladi. Yaʼni sirk artistining mahorati uning qanchalik xatarli chiqishlar qila olishiga bogʻliq. Shu bois, sirkda ishlash ayollar va erkaklar uchun birdek ogʻir. Ana shu mashaqqatni boʻyniga olgan odam sirkni tanlaydi. Qisqasi, artistmisiz, boshqa yoʻlingiz yoʻq!

Har safar yurtimiz bayrogʻini baland koʻtarganimda oʻsha bayroq qadar balandliklarda nozik mashqlarni ijro etganim koʻz oʻngimdan oʻtadi. Shunda sirk arenasi ham hayot maydoniga oʻxshashini his qilaman. Inson umri davomida qanchalik mashaaqatlarga duch kelmasin, baribir yashashdan zavq topadi. Shundagina hayotiga mazmun kiradi. Sirkning ham qiyinchiliklaridan zavqlana bilgan kishi yutuqlarga erishaverar ekan.


Qisqa muddatda sirk sanʼati sohasida eng nufuzli mukofotlarni oldik. Jumladan, 2023-yilda hamkorim bilan birga Ispaniyadagi Xalqaro sirk festivalida oltin medalni qoʻlga kiritdik. Shu yili Xitoyda oʻtkazilgan Xalqaro sirk festivalida kumush medala ega boʻldik. Eng nufuzli mukofot — 2024-yilda Monako (Monte-Karlo)da boʻlib oʻtgan Xalqaro sirk festivalidagi kumush medal boʻldi. Biz



oʻrganyapman. Zero, sanʼatda bir rutbaga erishish uchun koʻp narsadan voz kechish kerak. Oʻzingiz istagan payt oila davrasida boʻla olmaydiz. Bayramlarda xalqning xizmatida turishingiz kerak. Oʻziga yarasha cheklovlar ham boʻladi. Boshimdan oʻtgan bir voqeadan soʻng buning guvohi boʻldim.

Bir insonning xonadonida xizmat qilishga vaʼda berganmiz. Yoʻlga chiptalar olib qoʻyilgan. Ammo safarimizdan bir kun avval onamning onasi — buvim olandan oʻtib qoldi. Tadbir oʻtadigan joyga bormay desam, xonadon egalari bizga ishonib, boshqa sanʼatkori aytmagʻan. Boray desam, buvimni qaytib koʻra olmayman, oxirgi yoʻlga ketyapti. Shunda onam “Har qanday vaziyatda birovga bergan va dangning ustidan chiqishga harakat qilgin. Sen, albatta, sahnaga chiqishing, masʼuliyatingni ado etishing kerak”, dedi. Bundan-da ogʻir vaziyatlarga duch kelgani haqida ustozlarimiz ham koʻp aytgan. Shu maʼnoda, sanʼat olamida har doim ham bayram boʻlmas, har kuni ham kulib yurmas ekanisiz. Ammo muxlislarga hamisha iliq tabassum, koʻtarinki kayfiyat bilan taʼsir qilishga majbursiz.

Ustozlarimiz bejiz “Sanʼatning nonini yeyish uchun temirdan tish kerak”, demagan ekan. Hozirgacha maqom ilmini



Oʻzbekiston nomidan chiqar ekanmiz, Monako qirolik oilasi — shahzoda va malika bizni tik turgan holda olqishladi. Bundan benihoya gʻururlandik. 2024-yil mayda jahon rekordiga erishdim. Bu rasman 2025-yilda tasdiqlandi. Joriy yil martida hamkorim bilan yana bir bor jahon rekordini oʻrnatdik va Oʻzbekiston nomi “Ginnesning rekordlar kitobi”ga ikki marta yozilishiga sababchi boʻldik. Bu — faxr!

Sirk bilan bogʻliq faoliyatimizda esda qolarli voqealar koʻp boʻlsa-da, rekordchilik diplomini olgan lahzalarim men uchun unutilmas daqiqalarga aylandi. Chunki men rekordga sabab boʻlgan fokusni bajaragan birinchi ayol boʻldim. Balandlikda tishim bilan osilib, hamrohimi ushlab turdim. Shu chiqishim koʻp eʼtirof qozondi. Ayniqsa, Monako malikasi Stefani sanʼatimga yuksak baho berib, minnatdorlik bildirdi. Bundan quvonдим. Chunki u bizni “oʻzbekistonlik rekordchi”, deya eslab qoldi.

Shu yil boshida “Yilning eng yaxshi yil sirk artisti” deb topilganim esa oʻzimga ishonchimni yanada oshirdi. Endi ulkan marralar sari, Oʻzbekiston nomini ulugʻlash yoʻlidagi ezgu maqsadlar tomon yangi-yangi gʻoyalar ustida ishlayapmiz.

“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri
Munojat MOʻMIANOVA
yozi b oldi.